

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT ISHLAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

UDK: 398.1

BBK: 82.3 (50‘zb)

X - 72

XOLMURODOV BAXODIR MURODULLA O‘G‘LI

**XALQ OG‘ZAKI IJODIDA EPIK FORMULA VA BAXSHINING IJRO
MAHORATI**

5A 151601-“Folklor va etnografiya” ta‘lim yo‘nalishi

D I S S Y E R T A S I Y A I S H I

Ilmiy rahbar:

f.f.d., prof. J.Eshonqulov

Toshkent – 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-9
--------------------	------------

I BOB. BARQAROR FORMULALALAR VA ULARNING DOSTONLARDA NAMOYON BO‘LISHI

1.1.1. Epik formulalarning o‘rganilishi va tasnifi masalalari.....	10-17
1.1.2. Epik formulaning dostonlarda namoyon bo‘lishi.....	17-46

II BOB. BARQAROR FORMULALAR VA EPIK IJODKOR

MAHORATI

2.1. Epik formulaning asar strukturasiida tutgan o‘rni.....	47-56
2.2. Epik formulaning qiyosiy talqini.....	56-79
XULOSA.....	80-83
FOYDALANILGAN ADABIYotLAR RO‘YXATI.....	84-85

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

Fakulteti:«Xalq ijodiyoti» **Magistraturatura talabasi:** Xolmurodov B.M

Kafedra: «Folklor etnografiya» **Ilmiy raxbar:** f.f.d., prof. J.Eshonqulov

O‘quv yili: 2016-2017 y/y **Mutaxassisligi:** 5A 151601«Folklor etnografiya»

**«Xalq og‘zaki ijodida epik formula va baxshining ijro mahorati» mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga**

ANNOTATSIYA

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbek folklorining eng yirik janrlaridan biri dostonlardir. O‘zbek xalq baxshilaridan yuz ellikdan ko‘proq sujetga bo‘lingan to‘rt yuzdan ortiq doston yozib olingan. Bu dostonlar nihoyatda ko‘p tarmoqli va ko‘p mavzuli bo‘lib, uzoq asrlar davomida yaratilgan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelingan. Ularning qadimiy namunalari qahramonlik, romani va kitobiy dostonlaridir. Biz tadqiqot mavzu qilib olgan barqaror epik formulalar esa ana dostonning asos tayanchi, muhim bug‘ini hisoblanadi.

Ishda xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan epik formula tabiati va tasnifi masalalari, dostonlarda tutgan o‘rni va badiiyati qahramonlik, romanik va kitobiy dostonlar misolida atroflicha tadqiq etilgan.

Mavzuning o‘rganganlik darajasi: Hodi Zarifov, To‘ra Mirzayev, M.Saidov, B.Sarimsoqov, S.Mirzayev, J.Eshonqulov kabi o‘zbek folklorshunos olimlarining maqola va izanishlarida mazkur mavzu borasida bildirgan fikrlari muhim ahamiyatga ega. Biroq ushbu mavzu maxsus ilk bor dissertatsion mavzu ko‘lamida tadqiq etilmoqda.

Bundan tashqari dissertatsiyada o'zbek folklorshunos olimlarning o'quv qo'llanma, tadqiqotlaridagi fanning dolzarb masalalariga bag'ishlangan fikrlari, ilmiy qarashlariga suyangan holda ish ko'rildi.

Ishning maqsadi va vazifalari: O'zbek xalq dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari, uning o'ziga xosligini belgilab beruvchi va ijodkor salohiyatini ko'rsatuvchi barqaror epik formulani tadqiq etish va ana shu qo'yilgan muammo asosida epik ijroning hududiy o'ziga xosligini, baxshichilik maktabalarining rang-barangligini, dostonchilik san'atining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishni biz, o'z oldimizga maqsad qilib qoydik. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni:

Xalq ijodiga xos bo'lgan barqaoro epik formulaning nazariy tomondan o'rganilishini tadqiq etish;

Epik formulaning tasnifi masalalarini o'rganish;

Epik formulaning har bir baxshichlik maktabida namoyon bo'lish masalalarini o'rganish;

Epik formula turli dostonlarda turlicha, uziga xos tarzda namoyon bolish masalalarini tadqiq etish;

Epik formulani o'rganish orqali epik ijodkorning o'ziga xos ijro usuli va mahoratini tadqiq etish va ushbu qo'yilgan masalalarni atroflicha yoritib berishdan iborat.

Ilmiy raxbar:

f.f.d., prof. J.Eshonqulov

Magistraturatura talabasi:

Xolmurodov B.M

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalq ijodi deganda, bevosita ko‘z o‘ngimizda otabobolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan, millatimizning tarixi, buguni va kelajagini o‘zida mujassam etgan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon”, “Kuntug‘mish”, “Orzigul”, “Qironxon” kabi muazzam dostonlar, purma‘no ertaklar, maqol-matallar, hassos va o‘ynoqi xalq qo‘shiqlari, afsona-yu rivoyatlar namoyon bo‘ladi. Avloddan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelayotgan bu tafakkur durdonalari milliy ma‘naviyatimizning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi muttasil harakatdagi uzluksiz jarayon bo‘lib, millat o‘z milliy ma‘naviyatini-yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Ularda kuylangan yuksak insoniy tuyg‘ular, ilgari surilgan ezgu g‘oyalar barcha zamonlarda kishilarni yaxshi amallar, bunyodkorlik ishlariga ilhomlantirib kelgan.

Bu durdonalarning jonli ijro jarayonida bugungi kungacha yashab kelayotgani millatning o‘z o‘tmishini unutmagani, o‘zligini saqlab qolgan holda ertangi yorug‘ istiqboliga umidbaxsh nigoh bilan boqib turganidan dalolat beradi.

O‘zbek xalqi o‘zining g‘oyat qadimiy madaniyati va serqirra ijodiy salohiyati bilan jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov haqli ravishda yozganidek: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me‘morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma‘naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi”.¹

¹ Ислом Каримов. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. – 30 б.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida ta’kidlagan xalq og‘zaki ijodi namunalari bebaho badiiy qadriyatlar silsilasidir. Hamisha bunyodkorlik va yaratuvchilikni tarannum etib kelgan bu tafakkur durdonalarida xalqimizning eng olijanob va ulug‘vor maqsadlarga yo‘naltirilgan ezgu g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Ona diyorumizda yuksak madaniyatni bunyod etgan ijodkor xalqimizning dunyoqarashi, turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf-odat va marosimlari, qadriabad an‘analari-yu o‘zbekona samimiyatini o‘ziga xos tarzda badiiy ifoda etuvchi folklor asarlari o‘nlab janrlarni o‘z ichiga olgan g‘oyat nodir ma’naviyat bo‘stonidir. Xalq og‘zaki ijodiyoti milliy qadriyatlarimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli va hamisha yangilanib, har bir avlod badiiy tafakkurining sarchashmasidan quvvat olib sayqallanib boradigan, ya’ni doimiy harakatdagi ijodiy jarayon hisoblanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi yurtdoshlarimizning turmush tarzi, yashash sharoitlari va ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, otadan o‘g‘ilga, ustozdan shogirdga, ajdoddan avlodga o‘tib, doimiy ravishda sayqallashib, mukammallashib, tobora an‘anaviylashib boravergan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) kasb etgan hamda jonli ijro orqali bizgacha etib kelgan. Xalq ijodiyotining qadimiy namunalari esa, yozma manbalarda, xususan, mamlakatimizda yaratilgan ulkan yodgorlik – “Avesto”da, shuningdek, tarixchi va adiblarning asarlarida, qoyatoshlar suratlarida (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlari kabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, mehnat qurollari va uy-ro‘zg‘or buyumlarida o‘ziga xos tarzda saqlanib qolgan.

Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan xalq ijodi turlari va janrlariga nisbatan ayrim iste’dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, ertakchilar, roviylar, masxarabozlar, qiziqchilar, askiyabozlar, qo‘g‘irchoqbozlar, qo‘shiqchilar, go‘yandalar, xalfalar, qissaxonlar san’ati yuzaga kelgan. Ammo xalq ijodi namunalarining yaratilishi, o‘zlashtirilishi va amalga oshirilishida ko‘pchilikning ishtiroki, har bir ijro va amaliyotning qadimdan qaror topgan mustahkam an‘analar doirasida voqe’ bo‘lishi saqlanib qolgan. Shu sababli ham har qanday badiha, har bir ijodiy harakat, davomchi

tomonidan kiritilgan qay bir yangilik barqaror an'analar doirasida, ustoz-shogirdlik qobig'ida ro'y bergan. Shu tariqa, bir tomondan, an'analarning o'zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro va amaliyot davomida xalq ijodining an'anaviy namunalariga o'zgartirishlar, yangiliklar kiritila borgan, yangi asarlar, yangi variantlar, yangi yechimlar yuzaga kelgan, hatto qay bir namunalar unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

O'zbek folklorining qadimgi namunalari asl holda to'la ravishda bizgacha yetib kelmagan. Qadimgi miqlar, afsona va rivoyatlar, maqol, topishmoq va qo'shiqlar, epos parchalari turli xarakterdagi yozma yodnomalar, yunon, xitoy, arab manbalari, tarixchilarning ma'lumotlari, arxeologik topilmalar orqali, shuningdek, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlari tarkibida saqlanib qolgan. Qayumars, Jamshid, Gershasp, Siyovush, Afrosiyob, Rustam, Iskandar, Elikbek, To'maris, Shiroq, Zariadr va Odatida, Zarina, Oysuluv, Guldursun, Odami Od, Er Hubbi haqidagi afsona va rivoyatlar, qahramonlik eposlari, "Devonlu lug'otit turk"da keltirilgan folklor namunalarining yaratilishida o'zbek xalqi qadimiy ota-bobolarining ham munosib hissasi bor. Bu qadimiy folklor namunalarida tasvirlangan yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat, to'g'rilik va egrilik, adolat va haqsizlik o'rtasidagi kurash motivlari keyinchalik o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodida qayta ishlanib, xalqimizning ijtimoiy munosabatlari va kurashlari bilan uyg'unlashib ketgan.

O'zbek folklorining eng yirik janrlaridan biri dostonlardir. O'zbek xalq baxshilaridan yuz ellikdan ko'proq sujetga bo'lingan to'rt yuzdan ortiq doston yozib olingan. Bu dostonlar nihoyatda ko'p tarmoqli va ko'p mavzuli bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratilgan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelingan. Ularning qadimiy namunalari qahramonlik dostonlaridir.

Qahramonlik dostonlari patriarxal-urug'chilik munosabatlari bilan, ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik hayot tarzi bilan mahkam bog'liqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik qahramonlik idealizatsiyasi doirasida ko'tarinki ruhda tasvirlanadi. "Alpomish" dostoni qahramonlik dostonlarining yorqin namunasi. Dostonda qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, do'stlik, vafo va sadoqat

ulugʻlanadi. Qahramonlik dostonlari taʼsirida jangnoma-dostonlar yuzaga keldi. Agar qahramonlik dostonlarida bosh qahramon faoliyati yakkama-yakka olishuvlarda, bahodirlik shartlarini bajarishda namoyon boʻlsa, jangnomalarda turli-tuman xarakterdagi urush epizodlarida koʻrsatiladi. Dushmanga qarshi kurashda mardlik va jasorat koʻrsatish, ona er butunligi uchun kurash, el-yurtlar birligi, vatanparvarlik va doʻstlik kabi olijanob gʻoyalar kuylanadi.

Oʻzbek folklori asarlarini nashrga tayyorlash va chop ettirish borasida katta ishlar amalga oshirilgan boʻlsa-da, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar chop ettirilgan nashrlarda folklor asarlarining matni shoʻro mafkurasi talablariga moslashtirilgan holda qisqartirilgan, baʼzi hollarda nooʻrin ishlov berilgan edi. Oʻsha davrlarda xalqimiz badiiy dahosining ulkan yodgorliklari sirasiga kiruvchi “Alpomish”, “Goʻroʻgʻli” turkumi dostonlari toʻla nashrlari amalga oshirilmagan edi.

Istiqlol sharofati bilan xalq ogʻzaki badiiy ijodi asarlarini har tomonlama chuqur oʻrganish, ilgari yozib olinmagan folklor asarlarini izchil toʻplash va arxivlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirildi, eng muhimi, xalq ijodi namunalarini badiiy tafakkur durdonasi sifatida har tomonlama chuqur oʻrganish tamoyili shakllandi.

“Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000-yilligi keng nishonlanishi munosabati bilan bu dostonning Berdi baxshi, Poʻlkan va Ergash Jumanbulbul oʻgʻli, Bekmurod Joʻraboy oʻgʻli, Saidmurod Panoh oʻgʻli variantlari 1999-yilda alohida kitoblar holida toʻla nashr ettirildi. Oʻzbek folklorshunoslik tarixida birinchi marotaba “Alpomish” dostoni Fozil Yoʻldosh oʻgʻli variantining matni rus tiliga qilingan ilmiy-filologik tarjimai bilan birgalikda akademik nashr sifatida chop ettirildi.

Tadqiqot boʻyicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Oʻzbek folklorida barqaror epik formulalar boʻyicha ilmiy kuzatishlar olib borish XX asrning 40-yillaridan jiddiy tus oldi. Bunda folklorshunos olim H.T.Zarifovning «Goʻroʻgʻli» turkumi dostonlari boʻyicha yozgan maqolalari, toʻplovchilik ishlari diqqatga sazovordir. Uning akademik V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda rus tilida yozgan «Oʻzbek

xalq qahramonlik eposi» (M.,1947) nomli monumental monografiyalari boshqa tip dostonlar qatori epik formulalar bo'yicha amalga oshirilgan jiddiy tadqiqot sifatida baholanishga loyiq.

Garchand folklorshunoslikka barqaror epik formulalar atamasini Albert Lord va Melmen Perrilar deb hisoblansada, aslida epik formula haqidagi fikrlar ilk bor aynan ana shu olimlar tomonidan qo'llanilganligini qayd etish joiz.

Bundan tashqari epik formula haqida To'ra Mirzayevning «Xalq baxshilarining epik repertuari», J.Eshonqulovning «Epik tafakkur tadriji» kitoblarida turli fikr va mulohazalar aytib o'tilgan. Biroq mazkur mavzu alohida tadqiqot mavzusi bo'lgan emas.

Biz o'z ishimizda ana shu olimlarning nazariy qarashlariga suyangan holda ish ko'rdik.

Dissertatsiyaining obekti. Mazkur diplom ishimizning obekti sifatida esa, «O'zbek xalq ijodi» seriyasida turli yillarda chop etilgan «Alopmish», «Rustamxon», «Kuntug'mush», «Dalli», «Ravshan» «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Malika Ayyor», «Mashriqo» kabi dostonlarni oldik.

Dissertatsiyaining predmeti. Dissertatsiyaining predmeti folklorshunoslikdan kelib chiqqan holda o'zbek xalq dostonlarining, jumladan o'zbek xalq dostonlari badiiyati, uning ijrosida baxshining epik mahoratini belgilab beradigan epik formulalarga e'tibor qaratdik.

Dissertatsiyaining maqsad va vazifasi. O'zbek xalq dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari, uning o'ziga xosligini belgilab beruvchi va ijodkor salohiyatini ko'rsatuvchi barqaror epik formulani tadqiq etish va ana shu qo'yilgan muammo asosida epik ijroning hududiy o'ziga xosligini, baxshichilik maktabalarining rang-barangligini, dostonchilik san'atining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishni biz, o'z oldimizga maqsad qilib qoydik. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun esa oldimizga bir necha vazifalar qoydik:

Xalq ijodiga xos bo'lgan barqaoro epik formulaning nazariy tomondan o'rganilishini tadqiq etish;

Epik formulaning tasnifi masalalarini o'rganish;

Epik formulaning har bir baxshichlik maktabida namoyon bo‘lish masalalarini o‘rganish;

Epik formula turli dostonlarda turlicha, uziga xos tarzda namoyon bolish masalalarini tadqiq etish;

Epik formulani o‘rganish orqali epik ijodkorning o‘ziga xos ijro usuli va mahoratini tadqiq etish va ushbu qo‘yilgan masalalarni atroflicha yoritib berishdan iborat.

Dissertasiyaning metodologiyasi va metodikasi. O‘zbekiston Respublikasning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma’naviy qadriyatlardan estetik, tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish haqidagi nazariy qarashlari hamda H.Zarifov, T.Mirzayev, M.Murodov, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov kabi folklorshunos olimlarning ilmiy nazariy qarashlari ishimizning metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangili. O‘zbek xalq dostonlarining badiiyati masalalari, epik ijodda barqaror epik formulalar va ularning o‘ziga xos jihatlari alohida magistrlik dissertatsiyai qilib o‘rganilgan;

- dostonlar badiiyatini ochib breuvchi epik formullalar berilgan qismi tahlilga tortilgan;
- o‘zbek xalq dostonlarida keluvchi epik formulalarning o‘rganilish tarixi yoritib, tasnif masallari keng yoritilgan;
- epik formulaning har bir baxshichilik maktabida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi tadqiq etilgan.
- epik ijodkor uslubi va mahoratini belgilab berishda epik formulalar muhim ahamiyatga ega ekanligini yoritib berilgan;
- dissertatsiyaida qo‘yilgan masala orqali o‘zbek xalq dostonlarining, o‘zbek folklorining komil inson tarbiyasidagi o‘rni masalasi tahlil etilgan.

Ushbu tadqiqotimiz hozirgi dolzarb muammolarga qaratilgan ekanligi va yuqoridagi sanab o‘tgan jihatlrimiz tadqiqotimizning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning tarkibi. Mazkur magistrlik dissertatsiyamiz kirish, asosiy ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar royxatidan iborat. Hajmi 83 sahifani tashkil etadi.

BIRINCHI BOB
BARQRAOR EPIK FORMULALAR VA ULARNING
DOSTONLARDA NAMOYON BO‘LISHI

1.1. Epik formulalarning o‘rganilishi va tasnifi masalalari

Xalq dostonlarida baxshining badihago‘yiligi murakkab ko‘rinishlarga ega. Unda an'anaviy uslub elementlari va poetik formalar bilan baxshining ijodiy ulushlari shu darajada chatishib, birlashib, yaxlit holda namoyon bo‘lganki, kuylovchining qo‘shgan hissasini, yangiligini ajratish nihoyatda qiyin. Shu narsa aniqki, istalgan dostonda, hatto yuksak shoirlik qobiliyatiga ega bo‘lgan, o‘ta talantli ijodkorlarning variantlarida ham an'anaviy uslub elementlari va poetik, ya'ni epik formalar ustun turadi. Aytuvchining individual mahorati, ijrochilik faoliyati mustahkam va barqaror badiiy an'ana doirasida namoyon bo‘ladi. Bunda baxshining roli shundaki, u an'anaviy asarga hayot bag‘ishlaydi, Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining ta'biri bilan aytganda, «so‘zman libos kiydirib, shaylaydi». Faqat ijodkor dostonchining qo‘lidagina an'anaviy, agar ta'bir joiz bo‘lsa, o‘lik formulalar hayotiy kuch olib, yanada badiiy yuksak jaranglaydi.

Dostonlarda badihago‘yilikning roli va ahamiyatini yaqqolroq tasavvur qilish uchun «Alpomish» dostonining ikki variantidagi — Fozil shoir va Berdi baxshi variantlaridagi bir xil o‘rinni — Barchinning poygada Ko‘kdo‘non bilan yo‘l talashib kelayotgan Boychiborga murojaatini («Qur hayt», deb qichqirishini) keltiraylik. Fozil shoirida:

Qurru yo qur, hayta, to‘ramning oti,
Oq to‘shim yayloving, sochim shipirtki.
Kuyganimdan gapni gapga ulayin,
To o‘lgancha sayising bo‘p yurayin.
Egam rahm aylasii qonli yoshima,
Sabab bo‘lib qo‘shgin dengi-do‘shima,

Olmosday tuyog'ing qorday to'shima,
Qurru yo qur, hayta, to'ramning oti!
O'yilmay kuymasin kulbai xonam,
Oh urib yig'laydi mendayin sanam,
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam.
O'n ikki oy seni Boybo'ri boqdi,
Gardaningga Qaldirg'och qo'tos takdi,
Yiglatmagin Barchin gulday bebaxtdi,
Qurru yo qur, hayta, to'ramning oti!²

Berdi baxshida:

Senga muhtoj turur Qo'ng'irotd polvoni,
Yonida mu'tabar menday olgani,
Duo tekkan Qo'ng'irotd elning hayvoni,
Boybo'ri bobomning moli, qurru hayt,
Mulla Hakim yorimning moli, qurru hayt.
Gilam ayil yarashadi belingga,
Yugruklar chopadi Chilbir cho'lida,
Meni hayron qo'yma Qalmoq elida,
Boybo'ri bobomning moli, qurru hayt,
Mulla Hakim yorimning moli, qurru hayt.
Yugrib kelar mana betning tulkisi,
Qiz bolaning og'zidir kulkisi,
Sening o'zing Qo'ng'irotd elning yilqisi,
Boybo'ri bobomning moli, qurru hayt,
Mulla Hakim yorimning moli, qurru hayt.³

² Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Биринчи жилд. Нашрга тайёрловчи сўзбоши, илмий изоҳлар ва луғат муллифи Тўра Мирзаев. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. – В. 190-191.

Yuqoridagi parchalarning har ikkalasi mazmunan bir xil, ulardan koʻzlangan maqsad ham aynan, dostonda qoʻllanish oʻrni ham bir. Ammo bu aynanlik faqat tasvir vaziyati nuqtai nazaridandir. Matn tomondan ular bir-biriga oʻxshamaydi, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Tasvir vaziyati jihatidan barqaror, aynan boʻlgan bu matnlarning badiiy darajasi ham bir xilda emas. Iliq lirizm, chuqur ichki hayajon, Alpomish va uning jangovar yoʻldoshi Boychiborga nisbatan samimiyat, soʻz san'atining ajoyib tasviriy vositalari Fozil shoir tekstini bezab turibdi. Bu xususiyatlar Berdi baxshida ham mavjud boʻlsa-da, Fozil shoir teksti darajasiga koʻtarila olmagan. Matn nuqtai nazaridan bu darajada nomuvofiqlik, mos kelmaslik Fozil shoir va Berdi baxshilarning turli-tuman dostonchilik maktablarining vakillari boʻlganligi bilan izohlanadi. Demak, dostonchilikdagi badihagoʻylikning darajasi poetik maktablarga xos xususiyatlar bilan ham belgilanadi.

Badihagoʻylik darajasi bir poetik maktab vakillarida, xususan, bir ustoz-shogird tekstlarida, ayniqsa, bir baxshining bir dostonni ikki-uch vaqtda ijro etganida yana boshqacha boʻladi. Agar ustoz va shogird variantlari boʻlganda, bir doston bir baxshidan bir necha marta yozib olinganda edi, bunday badihagoʻylikni oʻrganish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan boʻlardir. Oʻzbek folklorshunosligida bunday tajribalar nihoyatda kam. Biroq koʻzatishlardan shu narsa aniqki, ustoz-shogird tekstlarida, bir dostonning bir baxshi tomonidan ikkinchi marta ijrosida matn oʻxshashliklar koʻp va asosiy hisoblanadi.

An'ana va badihagoʻylik darajasi, ularning oʻrni va roli xalq shoirlarining oʻzlari yaratgan dostonlarda ham oʻziga xos ravishda turli shakllarda zohir boʻladi.

Fozil shoirning an'anaviy dostonlarini bezab turgan «Jafu tigʻi bu kun jondan oʻtadi, Ayriqlik xanjari bagʻrin yirtadi»; «Xazon boʻlmay bogʻda gullar soʻlmasin. Soʻlgan gulga bulbul kelib, koʻnmasin»; «Otga soldi arpa bilan iyirni, Qorda yurgan karvon soldi chiyirni»; «Achchigʻlansa qobogʻini uyadi, Bor kuchini

³ Алпомиш. Айтувчи Берди бахши. Нашрга тайёрловчи Т. Мирзаев. Тошкент, 38—39-бетлар.

bilagiga yig'adi»; «O'tar dunyo o'tarini o'ylagin» va hokazo kabi qaytariq misralar — doimiy epik formulalar «Rustamxon» dostonida ham tez-tez uchrab turadi. Pandu nasixat bilan to'lib - toshgan bunday tayyor misralar bandning boshida, ba'zan o'rtasida kelib, og'zaki ijroda ma'lum bir fursat yaratadi va dostonchining quyilib kelayotgan fikr oqimini moxirlik bilan ifodalashiga imkoniyat tug'diradi hamda keyingi misralarni ijod qilishga sharoit hozirlaydi. Bunday misralar an'anaviy dostonlarda asar mazmuni bilan umuman bog'langan bo'lib, ko'pchilik xollarda ishlatilgan o'rnida bandni to'ldirish uchun xizmat etadi, ya'ni mazkur parcha mazmuni bilan bevosita bog'lanmay, dostonning butun ruxiga ulanib ketadi.

An'anaviy dostonlarda qaxramon va uning drujinasining ta'rif-tavsifi berilgan epizodlarga juda o'xshash bo'lgan yuqoridagi tasvirga nazar tashlasak, shoir an'anaviy uslubdan qanchalik ustalik bilan foydalanganligi ochiq ko'rinadi. Keltirilgan atigi o'n ikki misradan iborat misolning sakkiz misrai an'anaviy dostonlarda aynan uchraydi. Badihago'ylik mahsuli bo'lgan, ta'kidlangan misralarni ham shoir asosan an'anaviy zaminda, epos poetikasidan o'z hofizasida mavjud bo'lgan zapas obrazlar asosida to'qigan. Bundan uni an'anaviy dostonlardagi ba'zi tasvirlarning oddiy qaytarig'i, deb qaramaslik kerak. Shoirning dostonchilikdagi o'zining katta tajribasiga suyanganidan va yangi asar yaratishda o'zidagi boy imkoniyatni tasvir vaziyatiga mos, to'g'ri ishga solganidan mazkur tasvir yangicha, Fozil shoirga xos, qaytarilmas darajada jaranglagan. Bunda an'ana bilan badihago'ylik, an'ana bilan shoir yangiligi bir butunlikni tashkil etib, qahramonlarni yangicha bo'yoqlarda baxolashga, o'ziga xos tasvir yaratishga imkoniyat yaratgan.

Dostondagi epik formulalar o'rin olgan parchani o'qir ekanmiz, an'anaviy dostonlardagi o'z farzandlarini o'zoq safarga jo'natib, ayriliq dardini chekayotgan onalarning ichki monologini tinglayotganday bo'lamiz. Lekin shoir an'anaviy dostonlardagi kayfiyatni an'anaviy obrazlar va tayyor misralar orqali yangi vaziyat, yangi sharoitga mos bo'yoqlarda shunchalik yedirib yuborganki, natijada o'ziga xos originallik kasb etib.

Keltirilgan o‘n uch misralik parchaning atigi uch satrining muayyan qismlarini Fozil shoir yaratgan. Qolgan o‘n misra an’anaviy dostonlarda mavjud. Biroq bu misralar xuddi shunday kombinatsiyada biror dostonda ham uchramaydi. Bunda badihago‘ylikning yana bir xususiyati namoyon bo‘lgan, ya’ni badihago‘ylik an’anaviy zaminda, tayyor obraz va ifodalar yordamida har gal yangi satr va parchalarni to‘qib keta olish mahoratigina emas, balki o‘rganilgan doston badiiy teksti qismlarini epik klishelarni, doimiy stilistik formulalarni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish, agar ta’bir joiz bo‘lsa, kuylanayotgan dostonning umumiy stsensariysini, voqealar oqimini, syujet yo‘nalishini to‘la saqlagan holda misralarni yangicha kombinatsiyalash, aytuvchining o‘z g‘oyaviy niyatidan kelib chiqib, bir yo ikki so‘zni, hatto birgina affiksni o‘zgartirish orqali ularga yangi ma’no yuklash san’ati hamdir.

Eposda qahramonning jangi, otda safari, unga nasihat, o‘zga pahlavonlar bilan uchrashgandagi dialoglardan iborat nisbatan barqaror formulalar mavjud. Bunday matnlar baxshining kuchi va iqtidoriga yarasha har bir dostonda o‘rni bilan qo‘llaniladi.

Bunday xolni xalq shoirlari yaratgan boshqa dostonlarda ham ko‘rish mumkin. Masalan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li «Tarjimai hol» dostonida ukasi Abduxalilning vafotini tasvirlar ekan, ayriliqning alami, yolg‘izlikning dardi haqida xalq orasida keng tarqalgan aytim-yo‘qlov yo‘lida o‘z tilidan badiiy go‘zal she’riy lavhalar beradi. Bu parcha «Yakka Ahmad» va «Ravshan» dostonida Ahmad va Ravshanlarning dushman yo‘lida band bo‘lganda, yolg‘izlikdan shikoyat qilib, o‘z qayg‘u-alamlarini ifodalagan monologlariga⁸³ juda ham o‘xshashdir.

Keltirilgan har ikki parchani solishtirish Ergash shoir an’anaviy dostonlardan unumli foydalanish bilan birga yangi-yangi satrlar ham ijod qilganligidan dalolat beradi. Ajratib ko‘rsatilgan satrlarning ayrimlarini shoir an’anaviy uslubda o‘zi yaratgan bo‘lsa, o‘zga bandlar tarkibida kelgan boshqalarini yangicha kombinatsiyada beradi. Hatto shoir bir epitetni o‘zgartirish orqali xam yangicha ruxni bera olgan. Masalan, «xaybatli chinor» deyilganda, xalq qahramnoni

Go‘ro‘g‘li nazarda tutilsa, «novda o‘sgan chinor» deganda, shoirning ukasi Abduxalil ko‘zda tutilmoqda.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, romanik dostonlarda baxshining badihago‘yiligi asosiy o‘rinda tursa ham, unda mavjud an‘analar yetakchilik qiladi. Biroq ularda an‘anaviy dostonlarga nisbatan baxshi qo‘shgan yangiliklar hamda ijodiy momentlar ko‘p va behisob, badihago‘yilikning darajasi yanada yuqori bo‘lib, bu narsa mavjud an‘analar doirasida dostonchilikda yangi bosqichning boshlanishini ta‘minlay olgan.

Badihago‘yilik kuylanayotgan dostonning barcha komponentlariga taalluqlidir. Haqiqiy baxshi hatto dostonlardagi o‘ta an‘anaviy misra va epik klishe'larga ham o‘zgartishlar kiritadi. Biroq bunday interpretatsiyalar juda oz bo‘lib, ular asosan ayrim so‘z va affikslarning o‘zgachiligi bilan cheklanadi. Masalan, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining «Alpomish» dostonida «Xazon bo‘lmay bog‘da gullar so‘ldimi» an‘anaviy misrai quyidagi variatsiyalarda qo‘llangan:

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lgandir.

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lganda;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lgandi;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘libdi;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘ladi;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lmadi;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lsin-da;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lganmi;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘larmi;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lmasa;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lmasin;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lmasmi;

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘lar deyman.⁴

⁴ Алпомиш. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчи Тўра Мирзаев. –Тошкент: Фан, 1999. – 120 бет.

Ba'zan ijro davomida baxshi u yoki bu parchalarni unutib qo'yishi, shu tufayli ayrim epizodlarni tushirib qoldirishi va uning o'rniga o'z imkoniyatiga yarasha nimalarnidir qo'shishi mumkin. Ijro oqimidan kelib chiqmagan majburiy xarakterdagi bunday badihago'yliklar og'zaki ijod uchun muxim emas. Aksincha, baxshining tinglovchilar talabi yoki turli-tuman ta'sirlar tufayli ilgaridan o'ylangan, ongli ravishda dostonga kiritgan o'zgarishlari folkloristik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega. Bu baxshilarning o'z tinglovchilariga bo'lgan munosabatini, dostonning u yoki bu epizodiga nisbatan qarashini o'rganish uchun muximdir.

Eng keyingi avlod baxshilari repertuarida badiiy tekstning nihoyatda torayib ketishi, uning ko'pchilik hollarda quruq bayon tusini olishi, ikki-uch doston syujeti motivlarining bir asarga birlashtirilishi, an'analarni yaxshi o'zlashtirilmaganligi tufayli boshqalarga o'xshatmaslik niyatida epik ijodiyotni bo'zish va unga an'anaga mos bo'lmagan o'zgartishlar kirita berish, obrazlarga xalq estetik idealidan kelib chiqib berilgan ijtimoiy baho va ayrim motivlar talqinining yangilanishi kabi bir qancha holatlar ko'zga tashlanmoqdaki, bu va shunga o'xshash hozirgi og'zaki adabiy jarayonda sodir bo'layotgan boshqa qator hodisalarning ijodiy badixa bilan, baxshilarning badihago'yligidan iborat noyob qobiliyat bilan hech qanday aloqasi yo'q. Bunday hodisalarni ziyraklik bilan qayd etish va sinchiklab o'rganish an'analarning muayyan holatini, dostonchilikning ayni zamondagi ko'rinishi va unda sodir bo'layotgan jarayonlarni tekshirish uchun muximdir.

Yuqoridagi mulohazalarni xulosalaydigan bo'lsak, baxshilar ijodiy badihago'yliksi an'analarni rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xuddi shu tufayligina an'analarni bir joyda qotib qolmadi, balki dostonchilikni doimo olg'a yetakladi. Biroq an'analarning rivojlanib, yangilanishi, yangi bosqichga ko'tarilishi, yangi an'analarning boshlanishi, ilgari hech ko'rilmagan epik asarlarning yaratilishi ham an'ana va badihago'ylikning dialektik birligi,

mutanosibligi sharoitlaridagina mumkin bo'ldi. Bunday dialektik birlik ularning mohiyati, asosiy xususiyatidan kelib chiqqandir.

1.2. Epik formulaning dostonlarda namoyon bo'lishi

Barqaror epik formulalar har bir janrda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, epik formula ishqiy sarguzasht, ya'ni romanik dostonlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, romanik dostonlar klassik epos namunasi hisoblanadilar. Klassik eposda esa, tadqiqotchilarning ko'rsatishlaricha, yagona elat yoki xalq ideallari aks etadi, xalqaro epik syujetlarga xos motivlar paydo bo'ladi, jamoa qiziqishi hamda huquqiy normalari, xalq idealidagi adolat tuyg'usi tarannum etiladi, eposda geneologik, biografik, geografik va tarixiy turkumliklar yuzaga keladi va, nihoyat, tasvir hamda ifodada barqaror universal formulalar keng qo'llaniladi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan klassik epos xususiyatlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, epik formulaviylik xalq eposi taraqqiyotining eng yuksak bosqichi uchun xos zaruriy belgilardan biridir. Demak, epik formulaviylik oddiy shakliy xususiyat bo'lmay, xalq eposiga xos voqelikni poetik idrok etish va uni tasvirlash, epik qahramon ruhiy olamini ifodalashning o'ziga xos vositasi hamdir. Shu bois romanik dostonlardagi barqaror epik formulalar poetikasi maxsus tadqiqotlarni talab etuvchi ilmiy masala hisoblanadi. Ishimizning ushbu bobida ana shu masalaning ayrim jihatlari haqida bahs yuritamiz.

Xalq eposi uzoq davrlar shakllanish va jonli ijro bosqichlarini bosib o'tganligi, ana shu bosqichlarda mustahkam epik an'analar yuzaga kelganligi hozir hech kimga sir emas. Epik an'analar esa mavhum tushunchalar bo'lmay, ular bir nechta sathlarda amal qiluvchi aniq poetik hodisalardan iborat. Ana shu an'analardan biri epik mazmun bo'lib, u o'z ichiga asar voqealari hamda personajlar faoliyatini qamrab oladi. Epik mazmun real hayotiy mazmun bilan shartli bog'lanishga ega bo'lsa ham, biroq hech qachon real hayotiy mazmun bilan teng emas. Real hayotiy mazmun qay darajada o'zgaruvchan va faol bo'lsa, epik

mazmun shu darajada barqaror va an'anaviy xarakterga ega bo'ladi. Demak, epik mazmuni real hayotiy mazmun bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lab bo'lmaydi, ular o'rtasidagi bog'lanish epik an'ana barqarorligi orqali amalga oshadi. Bu epik voqelik va real voqelik o'rtasidagi munosabatning birinchi sathidir.

Ikkinchi sath esa barqaror epik mazmuni barqaror poetik shakllarda ifodalashning usul va vositalaridan iborat. Ayni mana shu sathda epik formulalar, ularning tarixiy ildizlari, ifodalagan mazmunlari va bajargan badiiy vazifalari yoritiladi.

Eng avvalo, shuni aytish kerakki, formulaviylik arxaik epos uchun emas, balki faqat klassik epos uchun xos xususiyatdir. Chunki epos ijodkorlari uzoq ajdodlarning tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar haqidagi, turmush tajribalarida sinalgan, tasdiqlangan yoki inkor etilgan poetik xulosalari asosida epik formulalarni yaratganlar. Bunday poetik hukm yoki xulosalarning doimiyligi, o'zgarmasligi esa formulalarning barqarorlashishiga, tasvir yoki bayonda epik xotira deb atalmish nodir hodisaning shakllanishiga yo'l ochib berdi. Oddiyroq qilib aytganda, barqaror epik formulalar epik xotirani mustahkam tutib turuvchi ustunlardir.

Barqaror epik formulalar muayyan syujet bilan bog'liq bo'lmagan, lekin xalq baxshilarining epik ongi va epik xotirasini ushlab turadigan, ularni badiha qilishga undab, yo'naltiradigan hodisadir. Shu ma'noda barqaror epik formulalar xalq dostonlarining muhim, yetakchi uslubiy xususiyati hisoblanadilar.

Xalq eposida saqlangan xotiraning mohiyatini chuqur va to'g'ri anglashda barqaror epik formulalar mazmunini, ularning an'anaviylik darajasini, har bir formulaning doston matnida ado etgan vazifalarini aniqlab olish katta ahamiyatga ega.

Xalq eposida barqaror formulalarning tutgan o'rni va badiiy vazifalari, ayrim formulalarda ifodalangan mazmunning tarixiy asoslari haqida o'zbek eposshunosligida bir qancha kuzatishlar olib borilgan¹. Ular stilistik formulalarning doston syujetidagi muayyan vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan va syujet bilan bog'liq bo'lmagan turlari haqida e'tiborga molik fikrlarni bildirganlar. Birinchi turga

mansub barqaror formulalar syujet voqealari rivojiga, muayyan vaziyatlar yechimiga ta'sir ko'rsatishini, ikkinchi turga mansub barqaror formulalar baxshi yoki personaj nutqida qo'llanilib, ifodalanadigan fikrga ritm, vazn va qofiya jihatidan qolip vazifasini ado etishini o'zbek eposshunosligida ilk bor V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar ko'rsatan edilar. Ayniqsa ularning ko'pgina barqaror formulalarning aforistik ma'no kasb etishlari va ular doston matniga kuchli mazmundorlik, salmoqli ma'no bag'ishlashlari haqidagi fikrlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas1.

Barqaror stilistik formulalar haqida "Alpomish" dostonining o'zbek variantlarini qiyosiy o'rganish munosabati bilan prof. T.Mirzayev alohida to'xtalib o'tgan. U "Alpomish" dostoni va uning variantlarida turlicha vaziyatlarda, turlicha shakllarda qo'llanilgan o'n uchta formula haqida to'xtalib o'tadi. Biz uchun qimmatli tomoni shundaki, T.Mirzayev har bir barqaror formuladagi ayrim so'zlarning, ko'proq, fe'l shakllarining o'zgartirilishi orqali turli vaziyatlarda xilma-xil vazifalarni ado etishga moslab qo'llash mumkinligi haqida diqqatga sazovor fikrlar bildiradi1.

Rus va boshqa xalqlar folklorshunosligida esa bu masala ancha ko'p, ancha jiddiy tadqiq etilgan2. Aslini olganda, epik formulaviylik nazariyasi dastlab akad.A.N.Veselovskiy tomonidan ishlangan. Keyinroq bu nazariya I.M.Tironskiy, V.M.Jirmunskiy va V.Y. Propplar tomonidan rivojlantirildi.

G'arbda esa epik formulalar masalasi Milman Perri va Albert Lord tomonidan mukammal o'rganildi. Ular asosan yunak va gayduk qo'shiqlari, ya'ni serb-xorvat eposi bo'yicha olib borgan kuzatishlarida eposdagi takrorlanuvchi mavzu va motivlarning so'z vositasida ifodalanishi, ularning metrik o'rni, shu orqali epos ijrochilarining badihago'yliklariga imkon yaratilishi haqida ko'p to'xtaldilar. Biroq ular o'z xulosalarini Gomerning "Iliada", "Odisseya" eposlari materiallari misolida chiqardilar. YE.M.Meletinskiyning fikricha, bu bilan ular xalq eposidagi formulaviylik nazariyasida bir qadam orqaga chekindilar3.

Bundan tashqari, epik formulaviylik masalalari haqida qadimgi sanskrit eposi "Maxabxarata", "Ramayana" materiallari misolida P.A.Grintser salmoqli

maqolalar e'lon qildi1. qolaversa, S.Y. Neklyudov, YE.M.Meletinskiy, A.B.Kudelin va S.D.Serebryaniylar ham turli xalqlar eposlaridagi formulaviylik masalalari haqida qator maqolalar e'lon qilganlar2.

Ammo shuni alohida qayd etish kerakki, ular tahlil qilgan epik formulalar tabiati, tarkibi va bajargan vazifalari jihatidan o'zbek xalq eposidagi barqaror epik formulalardan farqlanib turadi. Shunga qaramay, folklorshunoslikda barqaror epik formulalarning badiiy tabiati, ulardagi semantik ko'chimlar va bu formulalarning an'ana bilan aloqadorligi kabi masalalar eposshunoslikda hozirgacha atroflicha o'rganilmagan. Holbuki, barqaror epik formulalar epos ijrochiligida, epik asar mazmunini bayon etishda muhim ahamiyatga ega.

Xullas, barqaror epik formulalar alohida bir syujet bilan bog'liq bo'lmagan, lekin xalq baxshilarining epik ongi, bilimi va epik xotirasi asosida yotuvchi, xalq dostonlari ijrosi jarayonida ularni boshqarib turuvchi, badiha qilishga imkon tug'diruvchi poetik qoliplardan iboratdir.

Barqaror formulalar epik bayon va epik tasvirda belgilovchi darajada ahamiyatga ega ekanlar, ular bilan bog'liq masalalar talaygina. Biz ana shu masalalardan ayrimlari haqida to'xtalamiz, ular quyidagilardan iborat:

1. Barqaror epik formulalar mazmunining hayotiy-tarixiy asoslari va ularning epik matn bilan ramziy, majoziy aloqadorligi.

2. Epik formulalar uslub va mazmun sathidagi tipiklashtirish mahsuli bo'lib, ular epos tarkibidagi voqelikni tipiklashtirishga xizmat qilganliklari sababli, ularning mazmunga, turlicha ruhiy holatlarga mos kelishlari.

3. Jamoaning estetik mulki sifatida barqaror formulalar baxshining ijodiy imkonsizligini to'xtovsiz improvizatsiya bilan ta'minlash; matnga ramziy fon, badiiy ta'sirchanlik bag'ishlash uchun xizmat qiluvchi zaruriy poetik hodisalar hisoblanadi. Shu ma'noda barqaror epik formulalarning baxshilardagi ijodiy zaiflikni yashiruvchi, badeha jarayonida ularga ilhom baxsh etuvchi vosita ekanliklarini ko'rsatish.

4. Barqaror epik formulalar muayyan syujetlar bilan aloqador bo'lmagan, ammo turli-tuman epik vaziyat va holatlar mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi

poetik universal birliklardir. Binobarin, ular xalq eposida muayyan vaziyat va hodisalar bilan xoslangan holda qo'llanadilar. Demak, barqaror formulalar va ularning xoslanish xususiyatlarini ko'rsatish.

Barqaror epik formulalarning tarixiy asoslari yagona davr yoki muayyan bir ruhiy holat va vaziyatga borib bog'lanmaydi. Ularning har biri o'ziga xos hayotiy, ruhiy talab hamda ehtiyojlar bilan bog'liqlikda vujudga kelgan. Shu bois ularning barchasi uchun mos keluvchi yagona hayotiy, ruhiy asos qidirish mumkin emas.

Barqaror epik formulalar ajdodlarimizning tabiat hodisalari, inson ruhiy dunyosining turli holatlari, jamiyatdagi turli-tuman voqealarni kuzatishlari haqidagi hukmlari, hayotiy tajribalari natijasida yuzaga kelgan xulosalaridan tashkil topgan.

Epik formulalarning ayrimlari o'zlarining qadimiy ildizlari bilan patriarxal-urug'chilik tuzumi davrlariga (voqelikning har bir hodisasi yoki uzvi faqat marosimlar bilan boshqariladigan uzoq o'tmishga borib bog'lanadi. Ana shu davrlardagi maishiy hayot epik formulalarda butun jamoa uchun umumiylik kasb etgan hukm tarzida yuzaga kelgan va yagona, alohida hukmlardan ustun mavqe egallagan. Chunki patriarxal-urug'chilik tartibotlari nuqtai nazaridan yagonalik va alohidalik (xususiylik) estetik qimmatga ega bo'lmagan.

Dostonlarda keng qo'llanilgan shunday epik formulalar borki, ular mohiyatan qadimgi ajdodlarimizning hayoti, turmush tajribalari bilan bog'liq holda izohlanadi. Masalan, prof. H.T.Zarifov: «Yomg'ir yog'sa, halqob yerlar loylansin, Har yerda dushmanning qo'li boylansin» formulasining mazmuni sun'iy sug'orish vositasida dehqonchilik qilish vujudga kelmasdan oldin toshqindan keyin paydo bo'lgan loyqa yerlarda tezpishar don ekib, hosil qilish davrlari bilan bog'liqligini izohlaydi. Bu haqda u quyidagilarni yozadi: «Sun'iy sug'orish yuzaga kelib, rivojlana boshlagandan keyin ham suvdan uzoq yerlarda eng qadimiy usul bo'yicha toshqindan keyin paydo bo'lgan loyqa yerlardan foydalanish davom etgan, albatta. Buning dashtlarda yashovchi qabilalar xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega ekanligidan seldan keyin halqob yerlarda vujudga keladigan loyqa yerlarga ijobiy talab bilan «Yomg'ir yog'sa, halqob yerlar loylansin» misrasi

yuzaga kelgan. Bu qabila a'zolarining xo'jaligi uchun qanchalik muhim bo'lsa, dushman qo'lining bog'lanishi ham ularning osoyishta hayoti uchun shunchalik zarur va lozim bo'lgan. Shuning uchun bu ikki satr hikmatli ma'no kasb etdi. Demak, keltirilgan baytning har ikkala misrasi insonning hayotiy tajribasi natijasida hosil bo'lgan tushunchaning aniq ifodasidir»1.

Keltirilgan iqtibosdan ma'lum bo'ladiki, har bir epik formula o'ziga xos tarixga, o'ziga xos hayotiy asosga ega. Biroq bu asoslarni aniqlash oson ish emas. Mana shu holatni nazarda tutib biz ayrim barqaror formulalarning hayotiy asoslari haqida to'xtalib o'tamiz.

Romanik dostonlarda yoridan, yaqin kishilaridan ayro tushgan qahramon o'z holidan zorlanib, ruhiy iztiroblardan qiynalganda bir epik formulaning ikki xil shakldagi ifodasidan foydalanib, dard-alamlarini bayon etadi. «Malika ayyor» dostonida Go'ro'g'li Avazxonning Torkistondan qaytib kelish muhlatini so'raganda, ichi g'am-tashvishga, hadik va xavotirga to'la Avazxon tilidan quyidagi epik formula keltiriladi:

*Dardliman, dardimni kimga yoraman,
Ayriqliq o'tiga bag'ri poramanI.*

Xavf-xatarga to'la safarga o'tlangan qahramon dilida dard-alam, tashvish ko'p bo'lishi tabiiy. Binobarin, bir tomondan, uzoq va xatarli safar tashvishi, ikkinchi tomondan, musofir yurtlarda yurgan kishi bag'rini ezadigan yaqin kishilarning hajr dardi Avaz tilidan yuqoridagi epik formulani qo'llashga olib kelgan. Demak, ana shunday holat va vaziyatlarda yuqoridagi formulaning ishlatilishi epik tasvir, qahramonning ruhiy ahvolini ta'sirchanroq ifodalashga imkon bergan.

Ana shu barqaror epik formulaning boshqa yana bir varianti bor. Bu variantning shakllanish davri qadimgi quldorlik jamiyatiga borib bog'lanadi.

*Darli qul dardimni kimga yoraman,
Ayroqliq o'tiga bag'ri poraman.*

Agar mazkur epik formulaning birinchi variantiga diqqat qilinsa, unda ruhiy holatning ayriliq azobida qiynalgan barcha kishilarga mos keluvchi universal shakli mavjudligini ko'rish qiyin emas. Mana shu faktning o'zi ko'rsatadiki, ushbu variant epik formulaning nisbatan keyingi, birmuncha universallashtirilgan shaklidan iborat.

Ikkinchi variant esa o'zining qadimiy ildizlari bilan quldorlik jamiyati tartibotlariga borib bog'lanadi. Chunki ham moddiy, ham ma'naviy, ham siyosiy huquqsizlik qulga dardini aytish uchun na biror kimsa, na biror mehribon inson yo'qligidan dalolat beradi. Shu bois u dard-g'amni, alam va iztirobnini yolg'iz o'zi tortishga mahkum. Mana shunga asoslanib aytish mumkinki, epik formulaning birinchi misrasi bevosita ana o'sha davrlarda yaratilganligidan dalolat beradi. Keyinchalik ushbu misra mazmunining kengayishi, qulchilikning yo'qolishi misra mazmunini chorasiz, nochor kishilarning barchasiga nisbatan qo'llashga imkon berdi. Ikkinchi misra esa epik formulaning ayriliqqa tushgan, musofirlikda azob chekayotgan kishilarga nisbatan qo'llanishiga yo'l ochdi. Demak, qachonlardir aniq hayotiy vaziyatlarda yaratilgan epik formulalar keyinchalik jamiyat taraqqiyoti, kishilar ruhiy olamining boyishi natijasida o'zining semantik maydonini kengaytirib, ularni barcha personajlarning ruhiy holatlari uchun qo'llanishlariga yo'l ochib berdi.

Barqaror epik formulalarning ba'zilari kishilar-ning tabiatdagi o'zgarishlar haqidagi kuzatishlari oqibatida yuzaga kelganliklaridan dalolat beradi. Chunki yil fasllarining o'zgarishi bilan qahramon dilidagi o'zgarishlarni poetik muqoyasa qilish, boshqacha aytganda, tematik-psixologik parallelizmlar epik qahramon ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlarni to'laroq ilg'ab olish va tasvirlashga xizmat qiladi. quyidagi epik formula qahramon dilidagi orzu-umidlar qay darajada teran ekanligidan dalolat beradi va uning kelajakdan umidvorlik kayfiyatini ifodalashga xizmat qiladi:

Yana bahor bo'lsa, ochilar gullar,

Gulni ko'rsa, mast bo'p sayrar bulbullar.

Kishi hayotda kelajakdan umidvorlik tuygʻusi bilan yashaydi. Agar uning umid chiroqlari yonmasa, qismati qorongʻu, umri besamar oʻtadi. Bahorning kelishi, gullarning ochilishi, bulbullarning mast boʻlib sayrashi epik qahramonning hayotdan umidvorligi, uning ham hayotida bahor boʻlajagi, hayoti zavqqa toʻlib-toshishi mumkinligi epik tasvirga oʻziga xos shukuh bagʻishlab turibdi.

Quyidagi epik formula esa xazon faslida gullarning soʻlishi muqarrar boʻlganidek tutqunda, ogʻir sharoitda qolgan qahramonning oʻlishi ham shubhasiz ekanligidan xabar berib turibdi:

Xazon boʻlib, bogʻda gullar soʻladi

Bunda qolgan odam tayin oʻladi.

Demak, barqaror epik formula doston qahramonining ogʻir vaziyatdagi holatidan xabar berish uchun tinglovchini ruhiy jihatdan tayyorlashga xizmat qilmoqda. Biroq formulada ifodalangan yomon xabar haqidagi ishora badiiy koʻchimlar vositasida ramziy tarzda bayon etilgan.

Baʼzi barqaror epik formulalar yilning ayrim fasllariga xos injiqliklar bilan baʼzi kishilar tabiatiga xos xislatlarni muqoyasa qilish asosida yaratilgan. Bundan maqsad yil fasliga xos hodisalarni aytish emas, balki ayrim kishilarga xos xislatlarni qofiyali shaklda aytish orqali keyingi misralar uchun yagona qofiya uyasini, vazni hamda ohangini aniqlab berishdan iborat. Shunga qaramay, parallelizmning birinchi misrasidagi yil fasliga oid aytilgan fikr kishilarning koʻp yillik kuzatishlari natijasida vujudga kelgan xulosalarini ifodalashga xizmat qilgan:

Qishman yoz oʻrtasi hishshay savirdi,

Yomon odam mudom qilar gʻovurdi1.

Keltirilgan epik formuladagi birinchi misraning mazmuni hozirgacha aniq talqin etilgan emas. Bizningcha, ushbu misra mazmuni kishilarning ikki siklli

fasllar haqidagi qarashlariga, ya'ni yil bir-biri bilan zid bo'lgan yoz va qish fasllardan tashkil topganligi haqidagi qarashlarga borib taqaladi. Bunday tasavvurlarga ko'ra, qish va yoz o'rtasida bahor fasli mavjud bo'lmay, ushbu faslning sovuq davri qish fasliga, iliq kunlari esa yoz fasliga daxldor deb qaralgan. Kuz fasli ham ana shu tariqa yoz va qishga taqsim qilingan. Natijada, yil olti oydan iborat ikki fasldan tashkil topgan deb tasavvur qilingan. Bunday qarash qadimda juda ko'p xalqlar taqvimida mavjud bo'lgan¹. qadimgi ikki siklli taqvim bo'yicha, aprel oyining oxirgi o'n kunligidan may oyining yigirmasiga qadar savr hisoblanadi. Bu oyda yog'ingarchilik ko'payib, dala va qirlarni o't-o'lan qoplaydi. Epik formuladagi «hishshay» so'zi «hashish» so'zidan, ya'ni o'tloq, o'tga boy ma'nodagi so'zdan olingan. Gohida bu oyda qurg'oqchilik bo'lib, o't-o'lanlar qovjiray boshlaydi. Savr oyi bir-biriga zid, injiq fasl bo'lganligi va uning xususiyatini yomon odamga xos g'alva ko'tarish holatiga muqoyasa qilish yoki tematik-psixologik parallelizm talablariga ko'ra, tabiat raftori bilan inson xususiyatini yonma-yon qo'yish orqali yuqoridagi epik formula yaratilgan. Bundan tashqari, mazkur epik formula qahramonning otini egarlash paytida ot ustiga solinadigan abzal «davur» so'ziga qofiya uyasini hosil qilish maqsadida ham qo'llanilgan. Chunki «savir», «g'ovur», «davur» so'zlari monorifma talablariga ko'ra muqayyad qofiya hosil qiladi va uning ohangdorligi yuqori bo'ladi. Biroq qofiyalangan so'zlar faqat shakl va ohang nuqtai nazaridan emas, balki kontekstual ma'no jihatdan ham bog'liq bo'lishlari talab etiladi. Shu bois epik formula tarkibidagi «savir», «g'ovur» so'zlari ham shakl, ham ma'no jihatidan uyg'un holatda qo'llanilgan. Chunki savr oyiga xos injiq xususiyat bilan yomon odamga xos sifat o'rtasidagi uyg'unlik qofiyalangan so'zlarni o'zaro bog'lab turadi. Ular ikkisi bir bo'lib, epik bayondagi boshqa misralar uchun qofiya ohangdoshligini yuzaga keltirishga xizmat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, ayrim barqaror epik fomulalar uzoq ajdodlarimizning tabiat hodisalari, yil fasllari, samo jismlari, o'simlik va hayvonot olami, kishilar xatti-harakati va ruhiy holatlari yuzasidan olib borgan kuzatishlari haqidagi xulosa

va hukmlari sifatida yuzaga kelgan bo'lib, ularning sof tarixiy-hayotiy asoslarini aniqlash jiddiy ilmiy kuzatishlarni talab etadi.

Barqaror epik formulalar muayyan voqelik haqidagi an'anaviy mazmunlarni qayd etadilar, ular haqidagi an'anaviy mohiyatlarni ifodalaydilar, lekin ularning sababiy asoslarini izohlamaydilar. Shu bois baxshilar ijro jarayonida syujet voqelarining barcha uzvlarini tasvirlab o'tirmay, ular haqidagi tayyor epik formulalarga murojaat etadilar. Shu narsaga bo'lgan ehtiyoj epik formulalarni ijro jarayonida takror va takror qo'llashga majbur qiladi. Takroriy qo'llangan har bir formula esa o'z navbatida uning tobora barqarorlashuviga olib keladi.

Barqaror epik formulalar an'anaviy mazmunlar majmuasidan iborat va ularning har biri muayyan mazmundagi matn bilan o'ta darajada birikib ketganligi sababli uning ana shu matn bilan bog'liq boshqa sinonimik shakli bo'lmaydi. qisqasi, epik formulalar baxshilar xotirasini mustahkamlovchi, ularning xotirasidagi epik bilimni jonlantiruvchi, ularni tinglovchiga yetkazish shakli, maromi, ohangi, vazni va qofiyasi uchun qoliplik vazifasini o'taydilar. Ushbu fikrning tasdig'i uchun misolga murojaat etamiz.

Fozil Yo'ldosh o'g'li ijro etgan «Malika ayyor» dostonida Torkistondan Malika ayyorni olib kelish uchun safarga otlangan Avazdan Go'ro'g'li qaytib kelish muhlatini so'raydi. Otasining so'rog'iga Avazxonning beradigan javobini baxshi epik formulalar vositasida go'zal va ta'sirchan ifodalashga erishgan. Atigi yigirma misradan iborat Avazning javobida barqaror epik formulalar miqdori o'n misrani tashkil etadi. Sof epik bayonni ifodalovchi misralar bilan epik formulalar miqdorining tengligi nutqqa o'ziga xos ohangdorlik, mazmunga alohida joziba va ta'sirchanlik bag'ishlagan. Avazxon tilidan aytilgan ushbu monolog nutq quyidagi epik formula bilan boshlangan:

Toyrilmasa boshdan toju davlatim,

Ostimda o'ynasa arabi otim.

Mazkur formulaning ma'nosini to'g'ri anglash va talqin etishda, qahramonning javobini tinglovchiga aniq va lo'nda yetkazishda formuladagi birinchi misraning ramziy ma'nosi yetakchi ahamiyatga ega. Unda «boshdan toyrilmasa toju davlatim» deb aytilgan. Bu esa undan baxt-omadning yuz o'girmasligini anglatadi. Haqiqatan ham Avazdan baxt-omad yuz burmasa, u, albatta, sog'-salomat qaytadi. Ikkinchi misradagi ostida arabi otning o'ynashi g'irotda qaratilgan bo'lib, agar shu tulpor tirik, sog'-salomat bo'lsa, uning qaytishi muqarrarligiga ishoradir. Demak, qahramon o'zining ma'lum muddatdan keyin qaytib kelishining muhim shartlarini ma'lum qilib, keyin «o'n olti oy kelar mening muhlatim» deb javob qaytaradi. Atigi uch misradan iborat nutq parchasida berilgan epik axborotning tinglovchi uchun o'ziga xos falsafiy, hayotiy va hissiy jihatdan ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida baxshi barqaror epik formulaga murojaat etgan.

Agar Avazxon mazkur epik formulani qo'llamay, «kelar muhlatim o'n olti oy» deb javob qaytarganda epik bayonning badiiy tarovati barham topardi, eng muhimi, sog'-omon qaytishining ikki muhim sharti aytilmay qolardi, bundan bayonning ta'sirchanligi yo'qqa chiqardi. qolaversa, uzoq va xatarli safardan o'n olti oyda qaytishning sharti ma'lum qilinmasa, Avazxon aqlsiz, maqtanchoq sifatida taassurot qoldirar edi. El sevgan, jamoa idealini tashuvchi qahramon esa har bir qadami, xatgi-harakati, aql-zakovati bilan o'rnak bo'lishi lozim. Ana shu xususiyatlarning Avazga xosligini epik formula alohida ta'kidlab turibdi. Bundan tashqari, epik formula epik axborotning quruq, hissiz ifodalanishidan saqlab qolgan. Ma'lum bo'ladiki, epik formulalar bevosita asar syujeti bilan aloqador bo'lmasalar ham, epik bayonga ramziylik, hissiylik va obrazlilik bag'ishlashga xizmat qiladilar.

Epik formula vositasida Avazxon o'zining qaytish muhlatini ma'lum qilgach, baxshi tinglovchilar ruhiyatiga, hissiyotiga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatish maqsadida yangi epik formulaga murojaat etadi va uning yordamida epik axborotni kuchaytirishga erishadi:

*Dardliman, dardimni kimga yoraman,
Ayriliq o'tiga bag'ri poraman.*

Bir tomondan, suyukli farzandidan vaqtinchalik (balki butunlay) ayrilib qolayotgan otaning bezovta ko'ngliga dalda berish istagi, ikkinchi tomondan, Go'ro'g'lini Go'ro'g'li qilgan, nomini olamga yoygan, Chambil mamlakati va xalqining tinchligi, farovonligini ta'minlashga hissa qo'shgan g'irotdan ayrilib qolishdan tashvishlanayotgan mamlakat sardorining ko'ngil xijilini tarqatish uchun Avaz o'z so'zini yuqoridagi epik formula bilan davom ettiradi. Chunki ana shu vaziyatda Avaz haqiqatan ham dardli qul, ammo u dardini hech kimga ayta olmaydi. Sababi shuki, Zebit cho'lida, Shakar ko'lida Go'ro'g'lining aqlu hushini olgan Malika ayyorni Torkiston degan noma'lum va xatarli mamlakatdan osonlik bilan olib kelib bo'lmasligini u yaxshi biladi. Ammo jonidan yaxshi ko'rgan otasining dardiga malham bo'lish uchun Avaz so'z bergan, va'dani buzish esa epik qahramon sha'niga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun uning butun dardi ichida. Boz ustiga Go'ro'g'li ham farzandidan, ham tulpor otidan ayrilib qolishdan hadiksirab, qachon qaytib kelasan, deb so'rab yotibdi. Demak, bunday hadiksirashdan Go'ro'g'lini qutqarish kerak. Bu vazifani esa epik formulaning ikkinchi misrasi ado etadi. Mana shu holatda Avazxonning ham bag'ri vaqtinchalik ayriliqdan pora bo'lib yotibdi, agar u tirik qolsa, albatta, qaytadi. Mana shunday ikki tomonlama xavotirli dillarga taskin berish maqsadida epik formuladan keyinoq baxshi Avazning aniq qaytish muhlati haqidagi javobini qo'shib yuboradi. Avazning o'n olti oyda qaytib kelishi haqidagi xabari Go'ro'g'li va uning yonidagilarning, shuningdek, doston tinglovchilari dilidagi g'ashlikka barham beradi, ularni xotirjam qiladi⁵.

Ma'lum bo'ladiki, barqaror epik formulalar doston voqealariga, epik bayonga jonlilik beradi, kuchli emotsional ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Ayni paytda epik

⁵ Folklor va Etnografiya Matluba Murodova Toshkent 2008-y 56 B

formulalar qahramonlarning nozik ruhiy kechinmalarini tinglovchilarga yuqtirishda o'ziga xos kalitlik vazifasini ham ado etadi.

Avazxon oldida turgan safarning o'ta darajada xatarli ekanligini, undan omon qaytmasligi ham mumkinligini chuqur his qiladi. Shu bois u bu gumonini Go'ro'g'liga yetkazishni unutmaydi. Binobarin, u o'zining ruhiy holatini ochish uchun boshqa bir barqaror epik formulaga murojaat etadi:

*Jahonni sayr etib o'ynab kulmasam,
Nor kesar olmosni belga chalmasam.*

Ma'lumki, safar xatarli bo'lsa ham, bexatar bo'lsa ham, baribir, safar. Chunki safar chog'ida notanish yurtlarga boriladi, yaxshi-yomon voqea-hodisalarga duch kelinadi, turli-tuman odamlar bilan uchrashiladi. Safarning mana shunday xatarnok, dargumon tomonlari epik formulaning birinchi misrasida o'z ifodasini topgan. Ikkinchi misradagi nor kesar olmosni belga chalish esa qahramonning safar chog'ida har qanday vaziyatga tayyor ekanligidan dalolat beradi.

Demak, barqaror epik formula ijodkorni ham, tinglovchini ham epik vaziyat ichiga olib kirish barobarida baxshini jonli ijro jarayonida badeha qilishi uchun metrik, ritmik va evfonik jihatdan qolip bilan ta'minlaydi. Shu sababli epik formulalardan keyingi misralar ana shu qolip asosida epik axborotni tinglovchiga yetkazadi.

*O'n olti oyda Torkistondan kelmasam,
Avazxonning zo'r bilagi toldi de.
Ham otingni, ham o'g'lingni o'ldi de,
Yakka mozor bo'lib shunda qoldi de,*

Avazxon tilidan aytilgan bu so'zlar vaziyat dramatizmini kuchaytirib yuboradi. Buni payqagan Avaz asta-sekinlik bilan Go'ro'g'lining ko'nglini olishga, uning diliga cho'kkan xavotirni, biroz bo'lsa-da, pasaytirish uchun yangi epik formula vositasida so'zini davom ettiradi:

*Ota, eshit mening aytgan nolamni,
To'karman ko'zimdanda qonli jolamni.*

Ushbu formula Avazning otasiga aytgan yuqoridagi so'zlari ehtimoldan yiroq bo'lmagan narsalar ekanligini anglatishga xizmat qiladi. Nima bo'lganda ham ushbu formula yangi epik axborotni tinglovchiga yetkazishning qolipi vazifasini o'taydi. Mana shundan keyin quyidagi yangi «xabar» bayon etiladi:

*O'n olti oyda Torkistondan kelmasam,
Chambilbelda to'yray bering oshimni.*

Avazxon o'zining qaytish muhlatini, ammo xavf-xatarga to'la bu safardan qaytmasligi ham mumkinligini bildirgach, o'z monologi nihoyasida Go'ro'g'li va boshqa yig'ilganlarni xotirjam qilish maqsadida qaytishi muqarrarligi haqida to'xtaladi. Bu xabar esa doston tinglovchilari ko'ngliga biroz xotirjamlik bag'ishlaydi. U maqsadi va niyatini aniq bildirish uchun so'z ochar ekan, o'z nutqida yangi epik formula qo'llaydi:

*Har nima matlab bo'lsa, haqdan tilagin,
O'n olti oyda (qaytishni) haqdan tilagin.
O'n olti oyda kelar mening muhlatim,
O'n olti oyda yo'l-yo'lima qaragin.*

Asosan bir misradan iborat bu barqaror epik formula qahramonning qaytish yoki qaytmasligi uning o'z inon- ixtiyorida emasligi, bu narsa yolg'iz ollohning xohishi bilan bog'liqligini eshitgan Avazni kuzatishga chiqqanlar, shuningdek, doston tinglovchilari ham bir qadar xotirjam bo'ladilar.

Yigirma misralik she'riy monologning teng yarmi barqaror epik formuladan iboratligi baxshi mahoratining yuksakligidan dalolat beradimi yoki pastligidan,

degan savol tugʻilishi mumkin. Bizningcha, barqaror epik formulalarning koʻpligi, ularning oʻrinli qoʻllanganligi Fozil shoir ijro mahoratining yuksakligidan, uning epik bilimi va xotirasining mustahkamligidan dalolat berish bilan birga xalq eposi uslubini toʻla, benuqson egallaganligi hamda ijro jarayonida namoyish etganligini koʻrsatadi. qoʻllanilgan epik formulalar nutqqa kuchli hissiy taʼsirchanlik bagʻishlagan, oʻzlarining ramziy va majoziy mazmunlari bilan monologga poetik joziba bergan.

Badiiylikning asosini, oʻzagini obrazlilik tashkil etadi. Har bir epik formula bagʻrida mavjud boʻlgan obrazlar, ularning formuladagi mohiyatini aniqlash poetika uchun muhimdir.

Agar epik formula ikki misradan iborat boʻlsa, ularni tashkil etgan obrazlar eng kamida toʻrttadan iborat boʻladi. Ana shu obrazlarning kechinmalari, holati, xatti-harakati kabilar birikib, formulaning mazmunini, epik bayonda qoʻllanish oʻrni va ado etuvchi vazifasini belgilab beradi. Bu narsani quyidagi formulalar tahlili ham toʻla tasdiqlaydi:

*Ochilganda qizil gʻuncha soʻlmasin,
Dunyoda mard kishi hech bir oʻlmasin!*

Formulaning birinchi misrasida «qizil gʻuncha» va paymona (soʻlish) obrazlari, ikkinchi misrasida esa yuqoridagi ramziy obrazlarning aniq parallellari, yaʼni «mard kishi» va «oʻlim» obrazlari mavjud. Ramziy obrazlar va ularning aniq hayotiy timsollari oʻrtasidagi munosabat formuladagi majoziy mohiyatni belgilab beradi. Ana shu toʻrt obrazning ramziy bogʻliqligi, obrazlar qismatining fojeali boʻlmasligining tanlanishi formulaga sirli ramziy mohiyat bilan birga ham hissiy, ham ohangdorlik bagʻishlagan. Doston ijrosi paytida baxshi epik xotira vositasida syujet voqealarini boshqarar ekan, oʻzining epik bilimi xazinasidan tasvirlanayotgan vaziyat va ruhiy holatlar talabidan kelib chiqib formulalar tanlaydi. Mana shu tanlash jarayoni esa formuladagi yashiringan ramziy yoki majoziy mazmun talabi bilan amalga oshadi.

Barqaror epik formulalar tematik-psixologik parallelizmlardan iborat bo‘lib, yonma-yon tasvirlanayotgan yoki ifodalanayotgan ikki xil holat, vaziyat yoxud narsalarning semantik doirasi, mavzu yo‘nalishi muayyan monolog yoki tasvirning qo‘llanishi uchun hissiy-mazmuniy zamin hozirlaydi. Baxshi yoki doston personaji nutqiga mazmuniy yo‘nalish berish epik formula tarkibidagi ramziy obrazlar ado etgan vazifalar mohiyatidan anglashiladi. Masalan, «Orzigul» dostonida uzoq ayriqliqdan so‘ng farzandi Suvonxonni sog‘-salomat ko‘rgan podshoning nutqi ramziy mazmundagi shunday epik formula bilan boshlanadi:

*Kuygan qulga keng mamlakat tor ekan,
Adashganlar bir-biriga zor ekan.*

E'tibor berilsa, formulaning birinchi misrasidagi «kuygan qul» va «tor mamlakat» obrazlari dom-daraksiz ketgan yolg‘iz farzand dog‘ida kuygan podsho ko‘ziga na faqat mamlakat, balki keng jahon ham tor bo‘lib ko‘rinishi qonuniy hol ekanligini anglatadi. Ana shu mazmun va alamli ohangni yanada kuchaytirish maqsadida epik formulaga ikkinchi mazmundosh misra ham keltiriladi. Ikkinchi misradagi adashib bir-birlarini yo‘qotib qo‘ygan (hayotda adashib, bir-biridan abadiy ayrilgan) kishilar obrazlari dastlabki misralardagi obrazlarga o‘xshash va hamohangdir. Har ikki misradagi ibratli fikr, hayotiy ma'no birikuvi epik formulada yashiringan ramziy obrazlar vositasida aytiladi. Shu bois epik formuladan keyinoq ana shu ruh, ohang va qofiya orqali podshoning aytmoqchi bo‘lgan fikri bayon etiladi. Bu xabar esa podshoning og‘ir va iztirobli kunlariga sabab bo‘lgan voqealar haqida badiiy xabar beradi:

*Hamma joyda yo‘q, deb keldi xabaring,
Shukur, seni ko‘rar kunim bor ekan.*

Demak, kuygan qul uchun keng mamlakat tor, adashib bir-birlarini yo‘qotganlar uchun dunyo qorong‘u bo‘lganidek, yolg‘iz farzandidan ayrilgan

keksha podsho uchun ham hayot bema'ni bir narsaga aylangan. U o'g'lini qidirtirmagan joyi qolmagan, lekin topa olmagan. U o'g'lini topishdan butunlay umidini uzgan bir paytda tasodifan farzandi o'z oyog'i bilan kirib keladi. Shunda podshoning qalbi quvonchga to'lib, dil-dilidan shukronalar qiladi. Keksha hukmdor uchun umid chirog'i bo'lmish o'g'lidan ayrilish naqadar og'ir. O'g'il uning ko'z tikkan umidi, orzu-havasi, diliga dalda, ko'ziga nur bag'ishlab turgan ishonch tog'i, hayoti karvonida suyangan nori. Agar u dom-daraksiz yo'qolsa, otaning ahvoli zabun bo'lishi muqarrar. «Orzigul» dostonidagi Suvonning otasi ham ana shunday og'ir damlarni o'z boshidan kechiradi, nogahon qaytib kelgan Suvon esa unga yana kuch-quvvat baxsh etadi. Podsho monologidagi keyingi misralar ana shu voqealar va kechinmalarni epik formula vositasida ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi:

O'g'lidan ayrilgan qari xor ekan,

O'g'il qatordagi bir mast nor ekan.

Demak, personajlar nutqi, syujet voqealaridagi muayyan uzvlarning mohiyatini ochishda epik formulalarga joylangan an'anaviy mazmunlarni asardagi epik tasvir yoki ifodaga parallel keltirish tematik-psixologik parallelizmlarga xos xususiyatdir. Diqqat bilan kuzatilsa, romanik dostonlardagi epik formulalarning asar syujeti voqealariga, personajlar nutqiga mos qo'llanishlari parallelizm tamoyillari asosida voqe bo'ladi. Mana shu narsaning o'zi ko'rsatadiki, parallelizm xalq eposiga xos badiiy tasvir hamda ifodaning eng qadimiy, eng qulay usuli hisoblanadi.

Barqaror epik formulalarning universallik xususiyatlari, semantik, metrik, evfonik va ramziylik tabiati, obrazlar dunyosini ochish alohida ilmiy izlanishlarni talab etadi. Yuqoridagilarni yoritish esa epik formulalarning u yoki bu vaziyat, ruhiy holatlar bilan muvofiqlashib qolish masalasi bilan uzviy bog'liqdir. Demak, quyida epik formulalarning muayyan epik tasvir yoki ifoda bilan xoslanishi haqida so'z yuritiladi.

Ma'lumki, epik formulalar muayyan epik mazmunning an'anaviy ifodasidan iborat. Chunki ular muayyan epik mazmuni shu qadar aniq va obrazli ifodalaydilarki, ularni an'anaviy poetik mazmunning "atoqli otlari" deb atash mumkin. Darhaqiqat, ular, akademik N.I.Konrad aytganidek, estetik appertseptsiyalardan, ya'ni poetik idrokning barqaror va oldindan belgilangan modellaridan iborat bo'lib, o'z navbatida baxshilarning badiiy tajribasi, epik xotirasi hamda epik bilimni baholash mezonlari sanaladilar. Shunga qaramay, epik formulalar-ning har birini doston syujetining istalgan o'rnida, istalgan vaziyat yoki holat tasvirida qo'llab bo'lmaydi. Demak, epik formulalar universalligi tushunchasi ularning umumo'zbek xalq eposidagi muayyan vaziyat va holatlar bilan xoslanganligini anglatadi.

Xalq eposida an'anaviy barqaror qolip o'zida keng ommaning dunyoqarashida yig'ilgan tajribalarini umumiy, turg'un shakllarda mujassam etadi. Shu bois har bir badiiy akt uchun tayyor hayotiy taassurotlar jamlangan formulalar yaratilgan. Bunday formulalar doim harakatdagi hayotiy voqealar bilan to'la mos kelmasalar ham, biroq an'anaviy epik voqealar mohiyatini ifodalash uchun xizmat qiladilar. Chunki formulalardagi an'anaviy mazmun eposda tasvirlangan voqelik, epik dunyo tabiatini aks ettiradi, shuningdek, xalq eposiga xos voqelikni aks ettirish uslubini belgilab beradi.

Barqaror epik formulalar an'anaviy epik axborotni- epik kechinmani o'zlarida jamlab olganliklari sababli har doim ayni bir epik sharoit tasvirida qo'llanilib, qahramonlar nutqini, o'y-kechinmalarini, maqsadini, xatti-harakatlarini ifodalash uchun imkoniyat yaratadilar. Binobarin, faqat ana shunday «epik voqelik» bag'ridagina barqaror formulalar mohiyati oydinlashadi.

Ma'lumki, epik an'ana ko'psathli kategoriya bo'lib, bu sathlar xalq badiiy tafakkurida shakllangan badiiy-estetik munosabat hamda ijodkor dunyoqarashi kabilardan tashkil topgan. Shu ma'noda an'ana jamoa xotirasining majmui sifatida xalq eposida muayyan holat, xatti-harakat tasviri, personajlarning hissiy dunyosi va nutqlarini ifodalovchi matnlar tarzida shakllanadilar. Ana shu matnlarning mazmuni, mohiyati o'ziga xos barqaror epik formulalar orqali ochib beriladi. Mana

shundan kelib chiqilsa, epik formulalarning xalq dostonlaridagi vazifalari asosan ikkita bo'lib, ulardan birinchisi - epik formula baxshilar uchun epik bilimni mustahkam saqlab turuvchi barqaror andoza ekanligi hisoblanadi.

Darhaqiqat, baxshi jonli ijro jarayonida epik voqelikning fabulalarini xotirasida saqlagan holda mustahkam epik mantiq orqali ularni bir-biriga ulab, dostonlarning murakkab va yirik syujetlarini yaratadi. Bevosita mana shu ijodiy jarayonda baxshilar epik formulalarning barqaror mazmuniga tayanib ish ko'radilar.

Epik formulalarning ikkinchi vazifasi ularning epik xotirani mustahkam ushlab turuvchi vosita ekanliklaridadir. Agar barqaror formulalar epik voqelikka doxil vaziyatlarni, kechinma va monologlar, xatti-harakatlar mazmunini o'zlarida jamlab olmaganda edi, ularni muayyan izchillikda bayon etish yoki tasvirlash mumkin bo'lmagan bo'lardi. Chunki xotirasida epik voqelik fabulasini saqlagan baxshi uni mukammal syujet darajasiga ko'tarishda, ayni paytda, tinglovchilarga ta'sirchan yetkazishda epik formulalar semantikasi va shakliy qolipidan foydalanadi. Demak, barqaror epik formulalar tayyor semantik-sintaktik qoliplar sifatida epik matn tarkibiga qo'shilib, uning mazmunini ochishga, ifoda shaklini belgilashga xizmat qiladilar, ammo hech qachon ular o'zlari qo'shilgan matnning organik tarkibiga aylanib keta olmaydilar. Chunki har bir epik formula o'zining muayyan semantik maydoniga ega bo'lib, ijro jarayonida ular ana shu semantik maydonga mos matnlarga qo'shiladilar. Shu ma'noda barqaror epik formulalar muayyan «epik axborotni» tashuvchi badiiylik unsurlaridan biri sanaladilar.

An'ana unsuri sifatida barqaror epik formulalar o'zlarida epik mazmunni jamlovchilik va uni jonli ijro jarayonida ifodalovchilik vazifasini ado etadilar. Ulardagi jamlangan badiiy mazmun epik tasvirdagi an'anaviylikni yuzaga keltiradi, matnga xalqning ideali va tasavvurlarini joylaydi.

Barqaror epik formulalarning milliy epos doirasidagi universallik xususiyati turli epik vaziyatlar, xatti-harakatlar va holatlar, personajlarning monologlari yoki ular o'rtasidagi dialoglarda qo'llanish uchun xoslanishlari tufayli vujudga kelgan. Romanik dostonlardagi epik formulalarning qo'llanilish doirasini kuzatish bizga

ularning an'anaviy xoslanishlari quyidagi o'rinlar bilan bog'liqligini aniqlashga imkon berdi.

Noma'lum personajlar kimligi, qayerdan kelganligi, qayerga borajagi, nima maqsadda yurganligini aniqlash maqsadida beriladigan so'rovlar va ularga javob berishda qo'llaniladigan epik formulalar. «Ravshan» dostonida Ravshanni o'z uyiga olib ketgan kampirning qahramonning kimligi, qayerdan kelganligini bilish uchun bergan savollari quyidagi epik formula vositasida boshlanadi:

Tarzingga qarasam, nodon bolasan,

Mavj urib daryoday to'lib toshasan(BT. 2-tom, 399-bet).

Katta hayot tajribasiga ega bo'lgan kampir bir qarashdayoq Ravshanning siyog'i bu ellarga to'g'ri kelmasligini darhol payqab oladi. Buning ustiga Ravshanning g'ayratli yigit ekanligini, ammo hali g'o'rligini ham sezadi. qahramonning tabiatiga xos bunday xususiyatlar esa dostonidagi boshqa epizodlarda, boshqa personajlar tilidan berilajak so'rovlarda ham qo'llanilgan. Masalan, Zulxumorning kanizi Oqqiz tilidan berilgan savolda ham yuqoridagi epik formula ikkinchi misrasi o'zgartirilgan shaklda qo'llanilgan:

Tarzingga qarayman, nodon bolasan,

qasd qilgan g'animni o'tga solasan .

Personajlarning bir-birlariga beradigan savollarini ifodalash uchun qo'llaniladigan barqaror epik formulalardagi ikkinchi misraning o'zgarib borishi, bir tomondan, so'raladigan narsaning she'riy banddagi vaznga mos kelishini, ikkinchi tomondan, qofiyadagi izchillik hamda ohangdoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, kampirning Ravshanga bergan savoli epik formuladagi vazn va qofiyaga mos kelishi orqali ifodalangan:

Tarzingga qarasam, nodon bolasan,

Mavj urib daryoday toshib-to'lasan,

Sening tarzing bu ellarga kelmaydi

So 'zlagin, yosh bachcha, qaydan bo 'lasan?

Epik formula o'n bir hijoli barmoq vaznida bo'lganligi uchun savolni ifodalagan asosiy misralar ham ana shu vaznga solingan, epik formuladagi «bolasan, to'lasan» qofiyalariga savolni ifodalovchi to'rtinchi misradagi «bo'lasan» qofiyasi ohangdoshlikda moslashti-rilgan. Bu narsa Oqqiz tomonidan Ravshanga berilgan savolda ham mavjud:

*Tarzingga qarayman, nodon bolasan,
qasd qilgan g'animni o'tga solasan,
Yurting qayer, qaysi eldan kelasan,
Zulfi zarafshonim, qaydan bo 'lasan.*

Qahramonning kimligini bilib olish uchun beriladigan savollar xalq dostonlarida, xususan, romanik dostonlarda rang-barang epik formulalar orqali boshlanadi. Masalan «Kuntug'mish» dostonida darvozabonning To'raga beradigan savoli quyidagi epik formula bilan boshlanadi:

*Ol-ol bo 'lsin, ol-ol bo 'lsin, ol bo 'lsin,
Yarashiqqa mingan oting dol bo 'lsin.*

Savolning o'zi esa epik formuladagi vazn hamda qofiya uyg'unligida quyidagicha ifodalangan:

*Sening tarzing bu yerlarga kelmaydi,
So 'ylagil, jon do 'stim, senga yo 'l bo 'lsin.*

Ayni shu dostonning o'zida Xolbekaning To'raga bergan savolida epik formulaning ikkinchi misrasi o'zgarti-rilgan, ya'ni asosiy savolni ifodalovchi misra formula vazni hamda qofiyasiga moslashtirilgan holda qo'llanilgan:

*Qanday qo 'rqmay kelding ajalxonaga,
Jondan qo 'rqmay, yurgan jonim, yo 'l bo 'lsin?*

Dostonning boshqa bir epizodida Xolmo‘min yasovul-
boshining Mohiboyga bergan savoli yuqorida keltirilgan epik formulaning
ikkinchi misrasi yanada boshqacha o‘zgartirilgan shaklda keltiriladi:

Ol-ol bo‘lsin, ol-ol bo‘lsin, ol bo‘lsin
Uzundir, kaltadir - har to‘n mo‘l bo‘lsin,
qatag‘an yurtidan bo‘lsang go‘daklar,
Zangarning shahrida sizga yo‘l bo‘lsin?

Romanik dostonlardagi epik formulalarning qo‘llani-
lish o‘rni va personajlarning savol-javoblariga xoslanishini ko‘zdan kechirish
bunday o‘rinlarda turli-tuman formulalar istifoda etilganligidan dalolat beradi.
Masalan, «Kuntug‘mish» dostonida:

Sen ham bir bog‘chada bog‘ning gulisan,
Otangman enangning jonu dilisan

formulasi bir o‘rinda kampirning To‘raga bergan savolida qo‘llanilgan bo‘lsa,
ikkinchi bir o‘rinda:

Sen ham bir bog‘chada bogning gulisan,
Rasul ummat, xudoyimning qulisan

tarzida ikkinchi misrasi o‘zgartirilgan shaklda qo‘llanilgan. «Shirin bilan
Shakar» dostonida esa personajlarning o‘zaro savol-javoblarida yuqoridagi epik
formulalar bilan bir qatorda butunlay boshqa formulalar qo‘llanilgan. Masalan, Zil
tog‘idagi boboning Shirin-Shakarga bergan savoli quyidagi epik formula vositasida
ifodalangan:

Qirg‘iy degan qush o‘ltirar qiyoda,
Ne ko‘rib, kechirib foniy dunyoda,
qaysi yerdan kelding poyu-piyoda,
Xabar bergin, bolam, qaydan bo‘lasan?

Ayni shu dostonning boshqa bir o‘rnida Gulgun parining Shakarbekka bergan savoli quyidagi uch misrali formula vositasida ifodalangan:

*Yana bahor bo‘lsa, ochilar gullar,
Gulni ko‘rsa, mast bo‘p sayrar bulbullar,
Bulutlar mast bo‘lsa, chalqiydi ko‘llar...*

Qahramonning kimligi, qaysi mamlakatdan kelganligi va nima maqsadda yurganligini aniqlash maqsadida berilgan savollar ifodasida turli-tuman epik formulalar qo‘llanilgan bo‘lsa, bu savollarga qahramonning qaytaradigan javobi, o‘zini tanishtirishi bir-biriga o‘xshash yoki ayni bir formulaning ikkinchi misrasini o‘zgartirib qo‘llash orqali ifodalanadi. Masalan, «Malika ayyor» dostonida Avazxonning Gulshanbog‘da peshonasiga kapgir urilib, manglayi yorilgan paytda atrofini o‘rab olgan qizlar savoliga o‘zini tanishtirishi quyidagi epik formula vositasida berilgan:

*Bahorda ochilgan bog‘ning guliman,
Yunus ham Misqolning jonu diliman.*

Mana shu epik formulaning o‘zi «Shirin bilan Shakar» dostonida Zil tog‘ida goh oxur qilib, goh o‘choq qilib, goh qoziq yo‘nib yurgan cholning savoliga Shakarbekning javobida ikkinchi misrasi biroz o‘zgartirilgan shaklda qo‘llanilgan:

*Bahorda ochilgan bog‘ning guliman,
Men ham bir birovning jonu diliman.*

Har ikki misolda epik formulaning o‘zgaruvchan ikkinchi misrasi savolga berilgan javobning mohiyatini ifodalaydi. Boshqalarga o‘zining kimligi haqida xabar berilganda epik formuladagi ikkinchi misraning o‘zgarishi tabiiy. Chunki dostonlardagi savol beriladigan yoki savolga javob qaytaradigan vaziyatlar bir xil bo‘lgani bilan qahramon, uning mamlakati, ota-onasi va maqsadi tamoman boshqa

bo‘lishi mumkin. Birinchi misra barqaror bo‘lgani uchun ikkinchi misra javobning xarakteriga qarab uning ifodasiga vazn, qofiya va ritm jihatidan asos – “qolip” yaratib beradi.

Demak, doston personajlarining savol-javoblarida barqaror epik formulalarning ikkinchi misralari o‘zgartirilgan holda qo‘llanadilar. Bu xildagi shakliy o‘zgarishlar vazn jihatidan moslik hamda qofiya uyg‘unligini ta'minlash talabi bilan yuz bersa ham, lekin formula ifodalagan ramziy mazmun barqaror saqlanadi. Epik formulaga shunday o‘zgarishlar kiritib savol yoki unga beriladigan javob ohangi, ritmi va ruhiga moslab qo‘llash esa baxshining ijodkorlik hamda ijrochilik mahorati yuksakligidan dalolat beradi.

O‘zbek xalq dostonlarida ko‘p qo‘llaniladigan barqaror epik formulalardan biri «qirg‘iy degan qush o‘ltirar qiyoda» misralari bilan boshlanadi. Ushbu formula personajlarning qilgan ishlari, ko‘rsatgan mardlik va jasoratlari haqida xabar beruvchi yoki biror personajning qayerdan kelganligi, shaxsiyati haqida ma'lumot olish uchun savol berilgan o‘rinlarda qo‘llaniladi. «Malika ayyor» dostonida Avazxon Badbaxt cho‘lida Maqotil ismli bahaybat barzangiga duch kelib, uni qilich bilan ikkiga bo‘lib tashlaydi. Bu ishidan qoyil qolgan Avazxonning o‘z sha’ni haqida aytgan so‘zlari yuqorida aytilgan epik formula bilan boshlanadi:

*Qirg‘iy degan qush o‘ltirar qiyoda,
Ne ko‘rib kechirdim foniy dunyoda,
G‘ayratimdan shohlar yurar piyoda,
qilgan ishim har odamdan ziyoda.*

Shu formulaning o‘zi «Kuntug‘mish» dostonida Kuntug‘mishning husn-jamoli ta'rifu tavsif qilingan o‘rinda Xolbekaning Chaqqon ismli kanizi monologida ikkinchi misrasi o‘zgartirilgan shaklda qo‘llaniladi:

*Qirg‘iy degan qushlar bo‘lar qiyoda,
O‘limcha yomon ish bormi dunyoda?
Suluvligi, buvim, sizdan ziyoda,*

Parizod insonni ko'rdim, buvishim.

Demak, epik formulaning ikkinchi misrasi epik tasvir talabi, vaziyat va holat taqozosi bilan o'zgarib boradi. Biroq ushbu misraning o'zgarishi ma'lum mazmuniy maydon chegarasidan chiqib ketmasligi lozim. Agar «Malika ayyor»da ikkinchi misrada dunyoning foniyiligini uqdirish bilan birga shu o'tkinchi dunyoda inson boshidan ne-ne ishlar kechishi, u goh g'olib bo'lsa, goh mag'lub bo'lishi mumkinligi, shu bois u hech qachon umidsizlikka tushmasligi yoki mag'rurlanib ketmasligi ta'kidlansa, «Kuntug'mish»da formulaning ikkinchi misrasi o'limning shafqatsizligi, u hech kimga rahm qilmasligi, shuning uchun Xolbeking vaqtini g'animat bilib, go'zal yigit bilan tanishishi zarurligi ta'kidlanadi. «Shirin bilan Shakar»da esa bu formula Zil tog'ida uchragan boboning aka-ukalarning qaysi yurtidan kelganliklari, ismlari va nasl-nasablarini bilish maqsadida bergan savolida qo'llanilgan.

Yuqoridagi qiyoslashlar shundan dalolat beradiki, epik formulalar epik bayonni davom ettirish, personajlar o'rtasidagi muloqotlarni yoki ularning dilidagi kechinmalarini izhor etish uchun zarur bo'lgan ramziy epik mazmunni o'zlarida saqlaydilar. Ana shu epik mazmun esa baxshi xotirasidagi epik bilimni harakatga keltiradi va ijro jarayonini ta'minlaydi. Formulaning ikkinchi misrasi esa barqaror ramziy mazmunni epik bayon bilan moslashtiruvchi faol epik moslamalik vazifasini ado etadi.

Barqaror epik formulalar bo'lib o'tgan voqea-hodisalarga ramziy ishora qilish ma'nosida ham qo'llanadilar. «Kuntug'mish» dostonida Zangar yurtining podshosi Xolbekaga «hamrohing shahzoda qayerda» deb savol beradi. Ushbu savolga Xolbeka javob qaytarar ekan, uning javobida qo'llanilgan epik formulalar boshidan kechirgan voqealar, azob-uqubatlarni haqida berilgan xabarlariga ishora qilish, qofiya va ritmik qolip yaratishga xizmat qilgan:

Erisin, tog'larning qori erisin,

Yer yutar odamning axir barisan.

Sahar vaqti ikki qo'lim boylandi,

Bilmayman to‘ramning tiri-o‘lgin.

Epik formula she'riy bandda ifodalangan Kuntug‘mishning o‘lik yoki tirik ekanligidan Xolbeking bexabarligini aytish uchun ramziy mazmundagi asos hozirlashga imkon bergan. Tog‘larning qori eriydi, bu ma'lum narsa, odamning bir kunmas-bir kun o‘lishi ham muqarrar, ammo Kuntug‘mishning tirikligi, uning qayerda ekanligi noma'lum. Agar qahramonning qay ahvolda ekanligi quruq bayon etilsa, epik bayonning ta'sirchanligi pasayib ketar edi, ayniqsa, Xolbeking unga bo‘lgan munosabati, ishtiyoqi to‘la ifodalanmas edi. Bundan tashqari, epik bayonni davom etgirish uchun ritmik mezon, qofiya yo‘nalishi va ramziy ishora noma'lum bo‘lib qolar edi. Shuning uchun bunday holatlarda epik formulalar baxshini har tomonlama boshqarib boradi.

Xolbeking monologi davom etar ekan, navbatdagi bandda baxshi yangi bir epik formula qo‘llaydi va unda na faqat to‘rasi, hatto ikki o‘g‘lining taqdiri ham noma'lumligi ifodalanadi:

Bir bog‘chada olma edi, nor edi,

Ayirilgan qul bir ko‘rmakka zor edi.

Bilmayman to‘ramning tiri-o‘lisin,

Ena degan ikki o‘g‘lim bor edi.

Inson o‘z uyidagina bog‘dagi olma va anordek qadrli bo‘ladi. Xolbeka va Kuntug‘mish bir-birlaridan ayrilganlaridan keyin xuddi bir-birlarini ko‘rishga zor, ammo chorasiz quldek mung‘ayib qoladilar. Mana shu holat Xolbeking hozirgi holatiga ramziy ishora vazifasini o‘tamoqda. Chunki bir vaqtlar to‘rasi va ikki o‘g‘li bilan baxtiyor yashagan Xolbeka ham ularni ko‘rishga zor bo‘lib qolgan, xuddi chorasiz quldek mung‘ayib qolgan. Mana shu narsaning o‘zi ko‘rsatib turibdiki, barqaror epik formulalar epik bayonga, tasvir hamda ifodaga ham shakliy, ham ramziy ma'no bag‘ishlaydi, ularning hissiy ta'sirchanligini oshirishga ko‘mak beradi.

Epik formulalar faqat bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalargagina emas, balki kelgusida yuz berajak voqea-hodisalarga ham ramziy ishora berish vazifasini o‘taydi. «Malika ayyor» dostonida Avazxon xatarli safarga jo‘nab ketish oldida otasidan oq fотиha so‘rab turar ekan, nima maqsadda ketayotganligini formula vositasida alohida ta'kidlaydi:

Oh urganda ko‘zdan oqqan yosh endi,

Omon bo‘lsa, nelar ko‘rar bosh endi,

Osha yurtga yor axtarib boraman,

Omon bo‘ling, to ko‘rguncha, xush endi

Turkiy she'riyatda qadimdan keng tarqalgan to‘rt misradan iborat band tuzilishi parallelizm usulida qahramon tilidan aytilayotgan yangi epik axborotni ifodalash uchun qulay shakl hisoblanadi. Bunday band shakli talablariga ko‘ra, dastlabki ikki misra yangi axborotni bayon etish uchun ramziy-mazmuniy fon vazifasini o‘tash bilan birgalikda keyingi misralar uchun ritmik qolip, qofiya uchun uyg‘un evfonik asos ham hozirlaydi.

Albatta, kishi yuragi dardli bo‘lsa, u oh uradi. Oh urganda esa ko‘zdan yosh oqadi. Formulaning birinchi misrasidagi «yosh» so‘zi esa ikkinchi misra uchun uyg‘un qofiya qo‘llashga imkon beradi. Bunday uyg‘un so‘z «bosh»dan iborat. Chunki oh tortgan insonning qismati hali noma'lum. Uning boshi omon bo‘lsa, hali nelarni ko‘rmaydi. Epik formuladagi mana shu ma'no Avazning Torkiston safarida boshidan kechiradigan voqealarga ramziy ishora vazifasini o‘taydi. Ayni paytda formulaning har ikki misrasi «yosh», «bosh» so‘zlari bilan quyma qofiyani tashkil etadi.

To‘rtlikning qofiyalanmaydigan uchinchi misrasi qahramonga yangi epik axborotni aytish uchun imkon beradi. Chunki bu misra vazn jihatidan epik formula qolipiga mos kelsa ham, biroq unda qofiya bilan uyg‘unlik yo‘q. Mana shu shakliy holat qahramonga o‘z maqsadini erkin ifodalashga yordam beradi. Bu maqsad esa qahramonning yor axtarib osha elga ketishini ma'lum qilishdan iborat. Biroq band hali to‘la shakllangan emas. Band to‘la shakllanishi uchun to‘rtinchi misra

yuqoridagi uch misraga vazndosh, ammo dastlabki ikki misraga - epik formulaga uyg'un qofiya bilan bog'lanishi lozim. Epik vaziyat, qahramon aytmoqchi bo'lgan mazmundan kelib chiqilsa, to'rtinchi misra ham o'n bir bo'g'inli vaznga, «yosh-bosh» so'zlariga uyg'un so'z bilan qofiyalanishi lozim. Epik vaziyatdan kelib chiqilsa, safarga jo'nayotgan qahramon uchun birdan-bir istak qolayotgan otasiga omonlik tilab xushlashishdir. Mazmuniy, ritmik va evfonik uyg'unlik talabi o'zaro qofiyalanuvchi uch misrani birlashtirib, yagona bandni vujudga keltiradi.

«Kuntug'mish» dostonida Xolbekaning o'z go'daklarini emizish uchun qilgan oh-nolasida ham ayrim bandlardagi epik formulalar norasida bolalarning taqdiri, kelajagi haqida qayg'urish mazmunini ifodalashga xizmat qilgan:

Toza gulsan, oftob tegib, so'lasan,
Mavj urib, daryoday toshib to'lasan,
Men ketgan so'ng ikki go'dak o'lasan,
Enang bandi bo'lgan karvon qo'liga,
Enangdan ayrilib yo'lda qolasan.

Oftobning kuchli issig'i yangi ochilgan gulni so'ldiradi. Mana shu ma'no ona sutiga muhtoj go'daklarning onasidan ayrilib qolishiga ramziy aloqadordir. Ular yangi ochilgan g'unchaga o'xshaydilar. Xolbekaning ayirib olib ketilishi esa ana shu g'unchalarga oftobning qattiq issiqlik berib so'ldirishiga qiyoslanmoqda. Hali onalari yonlarida ekan, ular daryoday mavjlanib, toshib turibdilar.

Epik formulada ifodalangan mana shu ma'no uchinchi misradan boshlab asosiy epik mazmun bilan bog'liq holda davom ettiriladi.

Ushbu bandning o'ziga xosligi shundaki, u besh misradan iborat. Dastlabki ikki misra epik formula bo'lib, u bandda ifodalangan epik mazmun bilan ramziy aloqadorlikka ega. Keyingi uch misra esa yangi epik mazmunni ifodalaydi. Masalan, uchinchi misra epik formulaga ritmik, evfonik jihatdan moslik asosida Xolbekaning olib ketilishi haqida xabar bersa, to'rtinchi misra ritmik moslikda, ammo qofiyasiz holda Xolbekaning bandi bo'lganligini ma'lum qiladi. Bandning yakunlovchi beshinchi misrasi dastlabki to'rt misraga ritmik jihatdan uyg'un,

qofiyalanuvchi dastlabki uch misraga mos holda go‘daklarning onalaridan ayrilib qolganlaridan keyingi og‘ir qismlari haqida xabar beradi.

Ergash shoir repertuarida belgisi o‘rin egallagan «qunduz bilan Yulduz» dostonida ham ayrim barqaror epik formulalar qahramon yoki unga qarashli personajlarning kelgusi xatti-harakatlari, qismlari haqida xabar berish uchun ramziy ishora berish vazifasini ado etadilar. Masalan, Nuralining Avazxonni izlab ketganligini eshitgan Go‘ro‘g‘lining nabirasini qutqarib qolish uchun bergan amrini ifodalashga barqaror epik formula imkon bergan:

Mening bolam toza bog‘ning lolasi,
Topilmaydi shum o‘limning hiylasi,
Ot chopinglar, Nuralini topinglar,
Cho‘lda o‘lmasin Go‘ro‘g‘lining bolasi.

Bobo uchun nabira-umr bog‘ining mevasidek aziz va suyuqli. Lekin g‘addor o‘lim bunga qaramaydi, chunki o‘lim uchun buning qadri yo‘q. Suyuqli nabirasining xavf-xatarda qolganligini, hali norasida go‘dakning ot minib cho‘lga chiqib ketganligini bilgan Go‘ro‘g‘li uni qutqarib qolish uchun barcha yigitlariga otlanishni buyuradi. Diqqat qilinsa, epik formulaning birinchi misrasida bolaning azizligi haqida so‘z yuritilsa, ikkinchi misrasida esa o‘lim dahshati haqida gap ketganligini ko‘rish mumkin. Hayotning mana shunday shafqatsiz ziddiyatlari yuqoridagi epizodning kuchli dramaturgiyaga egaligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Go‘ro‘g‘li nabiram cho‘lda o‘lib qolmasin, otlanib tezda uni topinglar, deb farmon beradi. Demak, mazkur bandda qo‘llanilgan epik formula Nuralining shum o‘lim changaliga tushib qolmasligiga yo‘l qo‘ymaslik, uning hayoti uchun qayg‘urishga da‘vatni ta’kidlab ifodalashga xizmat qilgan.

Xullas, romanik dostonlarda qo‘llanilgan epik formulalar epik tasvirda o‘rni bilan bo‘lajak voqea-hodisalarga ramziy ishora qilish vazifasini ham ado etadilar.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar bizga quyidagicha xulosalar qilishga asos bo‘la oladi:

1.Barqaror stilistik formulalar xalqning hayot tajribasida jamlangan quyma poetik misralardan iborat bo'lib, ular baxshilarga jonli ijro jarayonida epik bilim hamda epik xotirani tiklashga, uzluksiz improvizatsiya jarayonida ijroni to'xtovsiz davom ettirishga inkor beradilar.

2.Barqaror stilistik formular epik bayonni davom ettirishda keyingi misralar uchun vazn, qofiya va ohangdoshlik jihatidan estetik appertseptsiya, ya'ni estetik o'choqlik vazifasini o'taydilar.

3.Baqaror stilistik formulalar epik vaziya, sharoit uchun xoslangan shakllarda bayonni davom ettirishga yordam beradilar va tasvirlanayotgan obrazning holati, voqelik mazmuni bilan ichki ramziy aloqadorlikka ega bo'ladilar. Ularning ayni shu vazifasi tasvir hamda ifodaga ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

IKKINCHI BOB

BARQAROR EPIK FORMULAR VA IJODKOR MAHORATI

2.1. Epik formulaning asar strukturasi va tutgan o'rnini

Xalq eposi matni klishelangan xarakterga ega. Bu esa turli vaziyatlar, holatlar tasvirida bir xillikni-universallikni keltirib chiqaradi. Folklorshunoslikda turli vaziyat va holatlar tasviridagi ana shu birxillik-universallik tipik o'rinlar deb yuritiladi. Bu quyida barqaror stilistik formulalarning ana shunday tip o'rinlarda qo'llanilishi va ko'p hollarda metaforik ma'no kasb etishi haqida so'z yuritamiz.

Dostonlarda barqaror epik formulalar qo'llaniladigan o'rinlardan biri ot egarlash tasviri bo'lib, u romanik dostonlarda deyarli bir xildagi epik formulalar yordamida bayon qilinadi. Bunday o'rinlar juda ko'p dostonlarda mavjud, lekin biz Ergash shoirdan yozib olingan «Dalli» dostonidagi Soqibulbulning Hasanxonga G'irotni egarlab berishi tasvirida qo'llanilgan epik formulalar tahlili bilan chegaralanamiz.

Ma'lumki, jangovar otni egarlash, ayniqsa, g'irotdek nazarkarda tulporni egarlash o'ziga xos odat, udum va tartiblarga ega. Ushbu tartib G'irotni tabladan olib chiqishdan ko'zga tashlanadi. Ergash shoir otning tabladan olib chiqilishi maqsadini, otni egarlovchi shaxsning kimligini aytib, yaratganga murojaat qilar ekan, har bir she'r bandini o'ziga xos epik formula vositasida o'rinli, chiroyli bayon etadi:

Loiloho, qudratingga ilohim,
Yiqilsam - surinsam, pushti panohim.

Darhaqiqat, imoni barkamol inson har bir ishni xudoga murojaat qilish, undan madad tilash bilan boshlaydi. Shuning uchun Soqibulbul ham G'irotni egarlashni yuqoridagi epik formula bilan boshlaydi.

Xalq dostonlarida ot egarlash shunchaki bir ish emas, balki o‘ziga xos qator an’anaviy xatti-harakatlardan tashkil topgan murakkab jarayondan iborat. Mana shuning uchun sayis dastlab otning ustiga yopib qo‘yilgan narsalarni olib, uni supurib, silab-qashlashdan ish boshlaydi. quyidagi epik formula ana shu narsani bayon etishga xizmat qilgan:

Bog‘bon uzar bog‘ning toza gulini,
Xudo ochsin talablining yo‘lini.

Bog‘bon o‘z bog‘ida ochilgan gulning eng sarasini oladi. Tulporga mingan qahramon ham, xudo yo‘lini ochsa, o‘z talab (maqsadiga yetadi. Bir xil vazn, bir xil qofiya izchilligida shoir Soqibulbulning xatti-harakatini mantiqiy izchillikda, eng muhimi, yetakchi epik voqea mazmunini milliy urf-odatlarimizga amal qilgan holda bayon etadi.

Soqibulbul G‘irotni qashlab, silab-siypab egarlash uchun hozirlar ekan, uning quloqlariga osib qo‘yilgan yolpushlarni oladi. Otning quloqlariga osib qo‘yilgan «yolpush» so‘zini aytish uchun unga qofiyadosh «behisht» va «hush» so‘zlari ishtirok etgan epik formula keltiriladi. Epik formula misralari bilan asosiy epik bayonning ikki misrasi parallelizm yo‘li bilan yagona qofiya hamda vazn vositasida uyg‘unlashadi:

Xudo bergan olar jannat-behishtni,
Hech kimdan olmasin aqlman hushni,
Ayil-pushtanini chechib bedovning,
qulog‘idan oldi zarli yolpushni.

Ot tanasini supurib, qashlash bahonasida uning barcha a'zolari ko‘zdan kechiriladi, so‘ngra uning ustiga ot abzallari tartib bilan birin-ketin qo‘yilaveradi. Eng avval ot beliga terlik qo‘yiladi. Shu bois epik formulada misra oxiridagi so‘zlar «terlik» so‘ziga qofiyadosh bo‘lishlari lozim. Bunday so‘zlar esa «xo‘rlik» va «erlik»dan iborat:

Olis yurtdan oshgan tortar xo‘rlikni,

Bedov mingan yigit qilar erlikni,
Ot beliga avval qo'ydi Soqi chol,
Ipkadan bosilgan mayin terlikni.

Po'ltkan shoir otga terlik solish tasvirini Ergash shoir qo'llagan mazmundagi, ammo sal o'zgacharoq shakldagi epik formula vositasida beradi. Bu o'zgachalik quyidagilarda ko'zga tashlanadi. Ergash shoirida «olis yurtndan» deyilgan bo'lsa, Po'ltkan shoirida «osha yurtga oshgan» deyiladi. Ergash shoirida «bedov mingan yigit qilar erlikni» deyilgan bo'lsa, Po'ltkan shoirida «yuguruk mingan qilar yo'lbars zo'rlikni» tarzida beriladi. Ergash shoirida «ot beliga avval qo'ydi Soqi chol» deb berilgan bo'lsa, Po'ltkan shoirida «navbat bilan G'irko'k otning beliga» shaklida beriladi. Ergash shoirida «ipkadan bosilgan mayin terlikni» tarzida aytilgan bo'lsa, Po'ltkan shoirida «astagina qo'ydi ipak terlikni» deb aytilgan. «Terlik» so'ziga qofiyalangan epik formuladagi so'zlar Ergash shoirida «xo'rlik» va «erlik»dan iborat bo'lsa, Po'ltkan shoirida «xo'rlik» va «zo'rlik» dan iborat. Har ikki holatda ham epik formula va asosiy epik bayon o'zaro uyg'un qofiyalangan.

Ko'rinib turibdiki, otga qo'yilayotgan abzallar bir xil, epik formula va undan keyingi misralar ham mazmunan uyg'un, ammo har ikki shoirida ularning ifodalanish shakli farqlanadi.

Terlik ustiga chirgi solinadi. Shuning uchun epik formula misralari chirgiga qofiyadosh «durbi», «qirg'i» so'zlari bilan yakunlanadi:

Olis yurtndan beklar ko'rar durbini,
Ustalar qo'liga olar qirg'ini,
Boz ustidan qo'ya berdi chol Soqi,
O'yimalab tashlagan baxmal chirgini.

Chirgi solish tasvirida ham Po'ltkan shoir qo'llagan epik formula farqlanadi. Masalan, Ergash shoirida durbin ko'radigan «olis yurtndagi beklar» bo'lsa, Po'ltkan shoirida «olis yurtga durbin tutgan podsho»lardan iborat. Ergash shoirida formulaning ikkinchi misrasi «ustalar qo'liga olar qirg'ini» shaklida bo'lsa,

Po‘lkan shoirida «olis borgan op kelmaymi belgini» tarzida aytilgan. Epik formuladan keyingi asosiy epik bayon Ergash shoirida «boz ustidan qo‘ya berdi chol Soqi» tarzida bo‘lsa, Po‘lkan shoirida «kish-kishlab soldi G‘irning beliga» tarzida bayon etilgan. Bandning to‘rtinchi misrasida Ergash shoir chirgiga nisbatan «baxmal» epitetini qo‘llagan bo‘lsa, Po‘lkan shoir «qirmiz» epitetini qo‘llaydi, ya‘ni baxmalning rangiga ishora qiladi⁶.

Chirgi ustidan bellik qo‘yiladi. Bu abzal otning beliga egar botib, yag‘ir bo‘lib qolmasligi uchun qo‘yiladi. Demak, epik formula «bellik» so‘zi bilan qofiyadosh bo‘lishi shart:

Yigitlik oxiri qirqman ellikdi(r),
Sodda odam norga berar ko‘llikdi
Boz ustidan qo‘ya berdi chol Soqi,
Chirgining ustidan qo‘ydi bellikdi.

Mana shundan so‘ng otga jahazdirik qo‘yiladi. Binobarin, epik formula «jahazdirik» so‘ziga qofiyadosh so‘zlar bilan nihoyasiga yetishi zarur:

Har yerda botirning ko‘ngli tirikdi(r),
Xayrga baxilning ko‘ngli erikdi(r),
Boz ustidan qo‘ya berdi chol Soqi,
Suyavi qunduzdan jihazdirikdi.

Ot egarlashda abzallarning nomi va ularning qo‘yilishi tartibiga to‘la rioya qilingan. Biroq Ergash shoir hamda Po‘lkan shoirdagi ushbu epizod tasviridagi asosiy farq shundaki, Ergash shoir chirgidan keyin «bellik», «jahazdi-

rik» kabi otga qo‘yiladigan abzallarni maxsus epik formulalar orqali alohida bandlarda tasvirlasa, Po‘lkan shoir bu ikki abzalning qo‘yilishini hech qanday epik formulasiz ikki misrada aytib qo‘ya qoladi:

Boz ustidan yana qo‘ydi bellikni,

⁶ Bulbul taronalari 1 tom Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining doston va termalari Toshkent 1997 y 95-B

Suyab qo‘ydi qunduz jihazdirikni l.

Jihazdirikdan keyin egar qo‘yiladi. Shuning uchun epik formula «egar» so‘ziga qofiyadosh so‘zlar bilan yakunlanadi:

Mullalar o‘qiydi zeru zabarni,
Ustalar ishlatar tesha-tabarni,
Boz ustidan qo‘ya berdi Soqi chol
Oltin qoshli, korsoni kumush egarni.

Tulporga egar qo‘yishda ham Po‘lkan shoir o‘ziga xos epik formula qo‘llaydi. Masalan, Ergash shoirida «mullalar o‘qiydi zeru zabarni, ustalar ishlatar tesha-tabarni» formulasi qo‘llanilgan bo‘lsa, Po‘lkan shoirida qo‘llanilgan epik formula butunlay o‘zgacha shaklga ega:

Temirchi olloh deb urar tabardi,
Kuyi kelsa bo‘lgan so‘zga chevardi.

Egarni qo‘yishni anglatuvchi epik bayon Ergash shoirida:

Boz ustiga qo‘ya berdi Soqi chol,
Oltin qoshli, korsoni kumush egardi

shaklida bo‘lsa, ayni shu harakat Po‘lkan shoirida o‘ziga xos shaklda beriladi:

Bismillo, deb olib qo‘ydi bedovga,
Tilla choptirgan sarpay egardi.

Egarga berkitilgan uzangilar otning ikki yog‘iga tushiriladi. «Tushirdi» so‘zini epik formulaga qofiyalash va ohangdoshlik bilan bog‘lash uchun baxshi fe'l kesim bilan yakunlagan o‘ziga xos formula qo‘llaydi:

Eranlarning qabrin tunab bosh urdi,
Ikki nargis xumor ko‘zga yosh urdi,
Ikki uzangi, ikkovi ham tilladan,
Yarqiratib ikki yoqqa tushirdi.

Ot ustida egarni ayil ushlab turadi. Demak, epik formulada «ayil» soʻziga qofiyadosh soʻzlar ishtirok etishi shart:

Jonivorning yol quyrugʻi mayindi(r),
Har kim koʻrsa, gʻirkoʻk otga qoyildi(r),
Egarning ustidan tortdi Soqi chol
Kashta qip toʻqilgan ipak ayildi.

Otning yoli ustiga tashlanadigan bezakli abzal «davir» deb ataladi. Soqibulbul otni egarlar ekan ot yoliga davir tashlashni ham unutmaydi. Binobarin, epik formula «davir» soʻziga ohangdosh boʻlishi talab qilinadi:

Bir necha sanamning qobogʻi durdi(r),
Xudoy bergan jannat bilan hurdi(r),
Ot beliga yoza-kerib tashladi,
qimmatbaho zar chochoqli davirdi.

Egarning oldinga tomon siljib ketmasligi, muqim turishini taʼminlaydigan «quyushqon» solish bilan egarlash davom etadi. Demak, toʻrtlik banddagi epik formula misralari «quyushqon» soʻziga qofiyadosh boʻlishi lozim. Baxshi ana shunday qofiyaga ega boʻlgan epik formulani qoʻllaydi:

Abzalining bari ola qayishdan,
Chuv desa, qutilar qanotli qushdan,
Ot dumiga sola berdi Soqi chol
Oʻn ikki qubbali karki quyushqon.

Nihoyat, pushtan solish bilan otni egarlash yakunlanadi. Shu bois navbatdagi toʻrtlikda qoʻllaniladigan epik formula «pushtan» soʻziga qofiyadosh boʻlishi kerak. Koʻp asrlik epik anʼana bunday qofiyaga ega boʻlgan formulani ham yaratgan va baxshi ijro jarayonida uni oʻrinli qoʻllaydi:

Hayvonni tuzadi oyogʻdan, boshdan,

Pir duosi ketgan g'unondan, yoshdan,
Ot beliga torta berdi Soqi chol
Poy to'shab tashlagan chigatoy pushtan.

Mana shunday qilib, safarga otlangan qahramonning jangovar oti egarlab bo'linadi. Xalq epik an'anasidan mustahkam o'rin olgan ot egarlash tasviri va tavsifi barqaror epik formulalar vositasida bayon etiladi.

O'zbek xalq romanik dostonlari syujetidagi ot egarlash epizodini ko'zdan kechirish ot egarlashda ot abzallarining qo'yilish tartibida ham xalq baxshilari o'zaro farqlanishlarga ega ekanliklarini ko'rsatadi. Masalan, Ergash shoirda egar qo'yilgandan so'ng ikki tilla uzangi ikki yoqqa tushiriladi. Po'lkan shoirda esa o'n sakkiz qubbali karki quyushqon solinadi, Ergash shoirda esa ipak ayil tortiladi. Po'lkan shoirda quyushqandan keyin ayil tortilsa, Ergash shoirda zar chochoqli davir solinadi. Shundan so'ng Po'lkan shoirda ikkita tilla uzangi ikki yoqqa tushiriladi. Ergash shoirda o'n ikki qubbali karki quyushqon solinadi. Mana shundan keyin Po'lkan shoirda zar chochoqli davir tashlansa, Ergash shoirda chig'atoy pushtan tashlanadi. Shu bilan Ergash shoirda ot egarlash yakunlansa, Po'lkan shoirda chig'atoy pushtan tashlash va qirq qubbali ipak yugan urish bilan nihoyasiga yetadi.

Ot egarlash motivi mohiyat e'tibori bilan o'zbek romanik dostonlarida deyarli bir xil xarakterga ega. Ammo baxshilarning tarbiya topgan dostonchilik maktablari an'analari muvofiq ot abzallariga oid epitelar, ularning qo'yilish tartibida muayyan farqlar, ularga muvofiq qo'llaniladigan epik formulalar shaklida ham ayrim o'zgachaliklar ko'zga tashlanadi. Har nima bo'lganda ham epik formulalar ot abzallarining nomlari va ularning qo'yilish tartibini qiziqarli tasvirlashga imkon beradi.

Jangovar ot egarlanib bo'lgach, qahramon unga murojaat qilib, o'zining sog'omonligi, salomatligi shu jonivorga bog'liqligini aytib, undan o'z maqsadiga ildam yetkazishni so'rab murojaat qiladi. Ushbu murojaat ba'zan biroz shakliy o'zgarishlar bilan barcha baxshilarda bir xilda qo'llaniladi. Masalan, «Dalli»

dostonida Hasanxon G'irotni o'yin ko'rsatishga da'vat etar ekan, undan sharmanda qilmaslikni so'rab shunday murojaat qiladi:

Otim G'irot, jonim G'irot,
Yeming kishmish, to'rvang banot,
Seni mingan topar murod,
qo'ltig'ingda yashin qanot.

Qoyil qilgin xonning qizin,
Hammani o'zingga qarat.

Yuqoridagi murojaatda otning sodiq hamrohligi, uning yemishi va to'rvasi, otning o'z xo'jasini murodga yetkazishi kabilar ta'rifu tavsif etiladi. Ayni shu xildagi murojaat Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan «Malika ayyor» dostonida ham biroz qisqa shaklda uchraydi:

Jonim G'irot, molim G'irot,
Yeming kishmish, to'rvang banot,
Seni mingan topar murod,
Dam-badam yetkiz Chambilga.

Muhammadqul Jomrot o'g'li Po'lkandan yozib olingan «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostonida ham Go'ro'g'li Rayhon arabning qizi Zaydinoyini olib kelishda arabning oti yetib olmasa edi, deb xavotirlanib, g'irotga qarab yuqoridagi an'anaviy murojaatni qisqartirib aytadi:

Otim G'irot, jonim G'irot,
Yeming kishmish, to'rvang banot,
Tezgir bo'lg'in, keldi arab.

Mana shu murojaatdan keyin baxshilar otning ta'rifu tavsifini qilishga o'tadilar. Bu borada Ergash Jumanbulbul o'g'li alohida ajralib turadi. U otning

qanday tablada boqilgani, qanday yem berilganligi, qanday mash'ala yoqilgani, qanday tushov solinganligi, oyoqlariga qoqilgan taqaning sifati, suv o'rniga sharbat berilgani, odamzoddan ham aqlli-hushli ekanligi kabilarni vasf etar ekan, otning oyoqlariga alohida to'xtaladi:

To'rt oyog'ing qoqqan qoziq,
Badanlaring qizdan nozik,
O'mganlaring fildan yoziq,
qoyil bo'lsin seni ko'rib,
Xon Dalliday ko'zi suzuk .

Po'lkani shoirida ham mazkur tavsif mavjud, biroq bandning nihoyasida u yana dastlabki an'anaviy ta'rifni takror keltiradi:

To'rt oyog'ing qoqqan qoziq,
Badanlaring qizdan nozik,
O'mganlaring fildan yoziq,
Otim g'iroti, jonim g'iroti,
Yeming kishmish, to'rvang banot,
Tezgir bo'lgini, keldi arab ⁷.

Jangovar otga qilinadigan murojaatning, undagi ta'rif tavsifning deyarli bir xil xarakterga ega ekanligining ikkita sababi bor. Birinchisi - «Go'ro'g'li» turkumi va bu turkumning yuzaga kelishiga asos bo'lgan omillardan biri g'irotning yagonaligi. Mana shu yagonalik otga berilajak tarbiya, parvarish va uning xislatlarini butun turkum davomida bir xil ta'rif tavsiflashga olib kelgan. Boshqacha aytganda, ta'rif dastlab bir baxshilik maktabida yuzaga kelgan va u g'irotni haqidagi yagona ideal ta'rif bo'lganligi uchun kuchli epik an'ana ta'sirida turkumning boshqa dostonlarida ham keng tarqalgan. Ikkinchisi - jangovar otga

⁷ Bulbul taronalari 1 tom Ergash Jumanbulbul o'g'lining doston va termalari Toshkent 1997 y 145-B

xos sifat-siyratning bir xilligi murojaatdagi ta'rifu tavsifning ham bir xilligiga olib kelgan.

Xullas, qanday bo'lmasin, safarga yoki biror yumushga jo'navotgan qahramon o'z maqsadiga jangovar oti yetkazishini bilgan holda, uni maqtab, yuksak ta'rifu tavsiflab murojaat qiladi. Bu ta'rifu-tavsiflar ko'p asrlik jonli ijro an'anasida takror va takror qo'llanishlari oqibatida barqaror epik formulalar darajasiga ko'tarilgan. Shu bois ular romanik dostonlar ijrosi an'anasida mustahkam saqlanib qolgan.

2.2. Epik formulaning qiyosiy talqini

Xalq epik she'riyati izchil vazndoshlik xususiyatiga ega. Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalq epik she'riyati vazn tuzilishi jihatidan qisqa va uzun she'r kabi tiplarga bo'linadi¹. Dostonlardagi she'riy qismlarning bunday tiplarga bo'linishi faqat shakliy hodisagina bo'lib qolmay, balki epik voqelikni tasvirlash hamda personajlar nutqini ifodali, ya'ni izchil vazndoshlik jihatidan ham xoslanganligini ko'rsatadi.

Qisqa she'r tipi 5-8 bo'g'indan iborat tuzilishga ega bo'lib, u doston qahramonlarining safar chog'ida otda yo'l bosishlari, epik dushmanlar bilan bo'lgan jangu jadallarni tasvirlashda keng qo'llaniladi. Demak, qahramonlarning faol xatti-harakatlarini jangovar otning harakat maromiga mos ritmda bayon etish va ijro jarayonida ana shu maromni tutib turish uchun qisqa she'r tipi maxsus tanlangan.

Uzun she'r tipi esa asosan o'n bir bo'g'indan iborat tuzilishga ega bo'lib, u personajlarning monologlari, ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Yuqorida biz epik formulalar haqida to'xtalganimizda epik she'rning mana shu tipiga xoslangan formulalar haqida to'xtaldik. quyida biz epik she'rning qisqa tipiga xoslangan barqaror epik formulalar xususida so'z yuritamiz.

Qisqa epik she'r tipi vositasida bayon etiladigan epik voqealar romanik dostonlarda asosan ikkita. Bular: qahramonning safar chog'ida ot surib yo'l bosishi

va uning epik dushmanlarga qarshi olib borgan jangu jadallari tasviridan iborat. Xalq eposi tasvir hamda ifoda uslubi, ko'p asrlik epik an'ana talablariga ko'ra, uzun she'r tipida bo'lganidek, qisqa she'r tipida ham o'ziga xos barqaror epik formulalar mavjud va ular ijro paytida baxshiga ritmik, evfonik nuqtai nazaridan qoliplik vazifasini o'taydilar, epik xotirani mustahkamlashga xizmat qiladilar.

Romanik dostonlar syujeti sarguzasht voqealar asosiga qurilgan. Shu bois bu tipdagi dostonlar qahramoni go'zal parilarni, tushida yoki o'ngida ko'rgan malikalarni izlab uzoq safarlarga yo'l oladilar. Ularning safarlari tafsiloti, ko'pincha, yetti bo'g'inli barmoq vaznida ayni shu vazndagi epik formulalar vositasida bayon etiladi.

Ma'lumki, epik qahramon azmu shijoatda, odobu axloqda xalqning yaxshi va go'zal farzand haqidagi ideallari asosida tasvirlanadi. Bu xislat ularning safarga jo'nashlari oldida ota-onasidan, yaqinlaridan oq fотиha olishlarida ko'zga tashlanadi.

«Dalli» dostonida ham Hasanxon Go'ro'g'lidan oq fотиha olib yo'lga tushadi. Ushbu epizod dostonida avval nasriy yo'l bilan, sal keyinroq esa she'riy shaklda o'ziga xos barqaror epik formulalar vositasida qaytadan bayon etiladi:

Parvardigor panodi,

Holin bilgan donodi.

Albatta, inson qay ishga qo'l urmasin, qayerda bo'lmasin, hamisha ollohning panohida bo'ladi. O'zining mana shu holatini, ya'ni xudoning marhamatisiz hech narsaga erisha olmasligini bilgan, his etgan va tan olgan insongina haqiqiy dono hisoblanadi. Mana shu fikrga asoslangan epik formula qahramonning qanday holatda safarga jo'nab ketganligi haqida tinglovchiga yetkaziladi, ayni paytda doston voqealari dinamikasini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham mazkur formula boshqa dostonlarda ham ko'p qo'llaniladi. Masalan, «Ravshan» dostonida Ravshan otasi Avazxondan duo olib, Jayronqush otini qistab jo'nab ketishi bayonida ham buni ko'ramiz:

Parvardigor panodi,

Holin bilgan donodi.

Mana shundan keyinoq formulaning vazni hamda qofiyasiga mos holda asosiy epik bayon davom ettiriladi. Masalan, «Dalli» dostonida Hasanxon Go‘ro‘g‘lidan, «Ravshan» dostonida esa Ravshan otasi Avazdan duo olib jo‘nab ketgani aytiladi:

Go‘ro‘g‘lidan duo olib,

Hasan polvon jo‘nadi.

Yoki:

Otasidan duo olib,

Ravshan polvon jo‘nadi .

Yo‘lga tushgan qahramon biror soniya bo‘lsin xudoning madad berishidan umidini uzmaydi. Chunki yaratganning o‘zi madad bermasa, uning qiyin ishning uddasidan chiqishi mumkin emas. El-yurt, ota-ona va yaqinlar oldida o‘z vazifasining uddasidan chiqishi va obro‘ bilan qaytish qahramon uchun muhim. Shuning uchun u tulpor ustida yeldek uchib borar ekan, dilida ollohga murojaat etib, o‘ziga obro‘ berishini chin dildan tilab boradi. Safarda ot yeldirib borayotgan qahramonning ana shunday ruhiy holati va kayfiyati dostonida o‘ziga xos betakror formula yordamida aniq beriladi:

Mardni tuqqan enadi (r),

O‘zi gavhar donadi (r),

Obro‘ ber, deb cho‘llarda

Yakka-tanho jo‘nadi.

Yuqoridagi bandeda epik formula Hasanxonning yo‘l bosishini bayon etishga xizmat qilgan bo‘lsa, quyidagi bandeda uning o‘g‘li Ravshanning yo‘l bosishi va qaysi mamlakatga borayot-ganligidan xabar berishga xizmat qiladi:

Mardni tuqqan enadi,

Enadan yagonadi,

Obro‘ ber, deb yosh bachcha

Shirvon qarab jo‘nadi.

Agar diqqat qilinsa, epik formulaning ikkinchi misrasi biroz o'zgartirilgan shaklda keltirilganligini ko'rish mumkin. Bu narsa tabiiy ravishda ijro jarayonida yuz beradi. Chunki baxshilar ayni bir formulani biroz o'zgartirgan, ammo mazmun-mohiyatini saqlagan holda qo'llaydilar. Yuqoridagi misolda ham ikkinchi misraning mohiyati buzilmagan holda shaklan biroz o'zgartirilib qo'llanilgan. Chunki gavharning har bir donasi yagona hisoblanadi, binobarin, Ravshanning ham yagona o'g'il ekanligini ta'kidlash yuqoridagi misraning mazmunini nisbatan aniq ifodalashdan iborat. «O'zi gavhar donadi(r)» shaklida ana shu mazmun metaforik ma'noda qo'llanilgan. Ushbu faktning o'zi ko'rsatadiki, ayni bir ijodkor ijrosida ham epik formulalarning variantlari yuzaga kelishi mumkin va ana shu variantlar epik formulaning bosh mazmunini saqlagan holda ifodadagi ayrim o'zgarishlar bilan bir epik vaziyatda, bir ma'no va vazifada qo'llanaveradilar.

Barqaror epik an'ana o'ziga xos badiiy tasvir hamda ifoda usullarini yaratganligi barchaga ma'lum. Mana shunga ko'ra, safar vaqtida tasvir goh qahramonning ruhiy holatini, xatti-harakatini, goh otning yelib borishini ko'rsatishga qaratiladi. Shu ikki narsaning tez-tez almashinib turishi, ya'ni epik retrospektsiya usuli qahramonning yo'l bosishi jarayonini jonli tasvirlashga yordam beradi; uning hamda jangovar otning xatti-harakatini aniq tasavvur etishga imkon beradi. Masalan, quyidagi barqaror epik formula Hasanxonning qanday maqsadga intilayotganligini namoyish etishga xizmat qilgan:

Goh sozini sozlaydi,
Goh bo'taday bo'zlaydi,
Endi ko'ring mard Hasan
Xon Dallini izlaydi.

Po'lkan shoirda («Go'ro'g'lining tug'ilishi») ayni shu formula Go'ro'g'lining safar paytidagi holatini to'la berishga xizmat qilgan:

Goh sozini sozlaydi,
Bo'taday bo'p bo'zlaydi.

qamchi bossa, layli g'ir
Tog'ning boshin ko'zlaydi .

Barqaror epik formulada aytilganidek, qahramonning «sozini sozlashi» uning dilidagi tug'yonlarni ochishga xizmat qiladi. Chunki ularning qo'lida hech qanday soz yo'q. Demak, epik formuladagi «soz» so'zi metaforadan iborat. Formulaning ikkinchi misrasidagi «bo'taday bo'zlash» birikmasi ham metaforik ma'noga ega bo'lib, u qahramonning azobu qiynoqda yo'l bosayotganligini, maqsadiga yetishish yo'lidagi ishtiyoqini, intilishini ifodalashga xizmat qiladi.

Xalq eposiga xos tasvirning bosh xususiyati shundaki, unda epik qahramon bilan bog'liq barcha narsalar - ot ham, makon ham, zamon ham birga harakatda bo'lishi talab etiladi. Shu bois otda yelib borayotgan qahramon holati bilan birga u mingan jangovar hamrohning ham harakat va holati tasvirlanishi epik qonuniyat hisoblanadi. qahramonning safar chog'idagi xatti-harakati va holati bayon etilgan o'rinlarda retrospektiv tasvir usuli qo'llaniladi. Ana shunga binoan ayrim she'riy bandlar otning harakatini bayon etishga yo'naltirilgan. quyidagi barqaror epik formula otning chopishini tinglovchi ko'zi oldida jonlantirishga yo'naltirilgan. Chunki jangovar ot ham qahramonning g'ayrati, shiddati va ishtiyoqiga mos holda yelishi lozim. Ana shundagina qahramon va uning hamrohidagi xatti-harakat, holat tasviri epik uyg'unlik kasb etadi:

Ot boradi arillab,
Otgan o'qday sharillab,
Ot olqimi - tong shamol
Mis karnayday zarillab.

Yuqorida keltirilgan to'rtlikdagi tasvir hamda ifodaning aniqligi otning tezligi, bu tezlik paytida qahramonning o'zini qanday sezayotganligi haqida jonli taassurot tug'diradi. Otning otilgan o'qday havoni kesib sharillab chopishi, ana shunga mos holda Hasanxonning qulog'i ostidan o'tayotgan shamolning mis karnayday zarillab ovoz berishi epik tasvirga barqaror epik formulaning baxsh

etayotgan ham tasviriylik, ham ifodaviylik xususiyatidan dalolat beradi. Chunki epik formula va unga mutanosib epik bayonda tasviriylik ham, ifodaviylik ham bir paytning o'zida mavjud.

Qahramonning ulovda yo'l bosishi, otning yelib borish shiddati har bir baxshida o'ziga xos, ko'p hollarda, ana shu baxshi tarbiya topgan dostonchilik maktabi yoki epik muhit an'analari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, umumo'zbek eposi miqyosida bu tasvir yagona mohiyat va mazmunga ega. Masalan, «Malika ayyor» dostonida Shozargarning qoratulporda Tillaqiz bilan chopishi tasvirida quyidagicha epik formula qo'llanilgan:

Tulpor boradi arqirab,

Otgan o'qdayin zirqirab .

Jangovar otning chopish shiddati «arqirab», «otgan o'qday zirqirab» deb ta'riflangan. Mana shu ifoda va tasvirning o'zida tinglovchi ko'z o'ngida og'zini ochib, yolini orqaga tarab yelday uchib borayotgan ot jonlanadi. Ko'rinib turibdiki, epik formula Ergash shoir hamda Fozil shoirda shaklan o'zgacha, lekin ularni mazmunan birlashtirib turuvchi xususiyat otning chopish paytidagi ko'rinishi va tezlikning otilgan o'qqa o'xshatilishi. Darhaqiqat, ajdodlarimizning tezlik haqidagi tasavvurlari kamondan otilgan o'qning havoni kesib, o'ziga xos ovoz taratib uchishiga qiyosan baholangan va bunday baho epik qahramonlar mingan tulporlarning chopish tezligi uchun mezonlik vazifasini o'tagan. Shu bois epik formulalar shaklan farqlanib tursalar ham, ularda aks etgan hayotiy detallarning vazifasi jihatidan umumiy mazmun kasb etgan.

Epik qahramonlarning otda yelishlari tasvirida xalq baxshilarining mahoratlari shundaki, ular bu epizodni mubolag'ali tarzda jonlantirib, tinglovchilarni tobora voqea ichiga olib kirishga erishadilar. Shuning uchun Ergash shoir «Dalli»da g'irotning yelishini yanada kuchaytirib tasvirlash maqsadida quyidagi epik formulani qo'llaydi:

Ot boradi arsilab,

Otgan o'qday tasirlab.

Otning arsillab, qadami tekkan yerlardan sado taratib borishini Ergash shoir otilgan o'qning tarsillashiga o'xshatib ta'riflasa, Fozil shoir qoratulporning yelishini ayni o'sha mazmunda, ammo o'zgacharoq shaklda ifodalaydi:

Boradi tulpor kish-kishlab,
Bu beklarning ko'nglin xushlab,
Otgan o'qdayin zarillab.

Otning shiddat bilan chopishi qahramonning sa'y-harakatiga ham bog'liq. g'irotning yanada ildamroq yelishi uchun Hasanxon unga ketma-ket qamchin uradi. Mana shu harakat ham maxsus formula orqali ifodalangan:

qamchi urdi soniga,
Jabr qildi joniga,
Suvsiz cho'llar larzon yer
G'irning irg'iganiga.

Navbatdagi bandda ham ana shu shiddat, ana shu xatti-harakat boshqa bir epik formula vositasida bayon etiladi:

Otga qamchi choladi,
Otning jonin oladi.

Epik formuladan keyingi misralar esa qahramonning ruhiy holati tasviriga ko'chadi, biroq an'anaviy epik ifoda talablariga ko'ra, keyingi ikki misra ritm va ohangdoshlik jihatidan epik formulaga to'la mos holda keltiriladi:

Suvsiz cho'lda Hasan mard,
Obro' ber, deb yiladi.

Fozil shoir esa tulporga qamchi urishni o'ziga xos yo'sinda tasvirleydi. Epik formulaning ikkinchi misrasi esa umumo'zbek eposi uchun xos bo'lib, u ko'pchilik dostonlarda bir xilda takrorlanadi:

Bo'ztulporga qamchi chotdi,
Urgan qamchi simday botdi .

Fozil shoir repertuariga mansub «Murodxon» dostonida ham otni qamchilash yuqoridagi epik formula vositasida ifodalanadi:

Bedov otga qamchi chotdi,

Urgan qamchi simday botdi.

Epik formuladan keyingi misralar esa asosiy epik bayonni tashkil etadi:

Parqinidan ko‘pik sochib,

Murodxonni surib ketdi.

Xullas, Ergash shoirda ham, Fozil shoirda ham otga qamchi urish mohiyat jihatidan bir xil, ammo shaklan bir-biridan farq qiluvchi epik formulalar orqali bayon etiladi.

Yeldek uchib borayotgan tulporning harakat tarzini o‘ziga xos formulalar yordamida tasvirlash o‘zbek xalq eposi an‘analaridan mustahkam o‘rin olgan. Chopayotgan ot, uni boshqarayotgan qahramonning qanday joylardan o‘tib borayotganligini ifodalovchi maxsus barqaror misralar yaratilganki, ular ba’zi shakliy o‘zgarishlar bilan romanik dostonlarning barchasida qo‘llaniladi. Masalan, «Dalli»da g‘irotning hech narsaga qaramay chopishini tasvirlashda quyidagi epik formula istifoda etilgan:

O‘r kelsa, o‘mganlatdi,

Nishab kelsa, to‘xtatdi,

Arig‘ kelsa, irg‘itdi,

Jilg‘a kelsa, jilpitdi,

Tekis kelsa, o‘ynatdi.

Chopayotgan otda o‘tirgan qahramon yo‘lning baland-pastini yaxshi bilishi va sharoitga qarab uni boshqarishi lozim. Muayyan bir masofani ildam bosib o‘tish uchun u otni boshqarish malakasiga ega bo‘lishi shart. Epik qahramonlar esa ana shunday malakaga ega bo‘lgan kishilardir. «Malika ayyor» dostonidan keltiriladigan quyidagi misralarda Shozargarning tulporni boshqarish mahorati xuddi Ergash shoirdagidek, ammo barqaror formula misralari shaklan o‘zgartirilgan, miqdoran biroz qisqartirilgan holda beriladi:

O‘r kelsa, o‘mganlatdi,

qir kelsa, qilpillatdi,

Arna kelsa, irg‘itdi,

Shuytib zargar yo‘l tortdi.

Qahramonning yo‘l bosishi, u mingan tulporning chopish muddatini belgilash o‘zbek romanik dostonlarida o‘ziga xos an’anaga aylangan. Shuning uchun ko‘pchilik dostonlarda mazkur epizod tasvirida bir-biriga o‘xshash barqaror epik formulalar yuzaga kelgan. qahramonning kechani-kecha, kunduzni kunduz demay ot chopishini tasvirlashda ana shunday formulalar ko‘p qo‘llaniladi. Ergash shoir Hasanxonning tinimsiz ot chopishini shunday bayon etadi:

Arig‘ tubinda andiz,
Daryo tubinda qunduz,
qistab ketib boradi,
Kecha demaydi kunduz.

Fozil shoir «Malika ayyor»da Asad, Shodmon merganlarning tinimsiz otda yo‘l bosishlarini maxsus epik formula yordamida bayon etadi. Bu epik formula ham asosiy epik bayon bilan aloqadorlikka ega emas, ammo unga ritmik asos yaratib, qofiya uchun qoliplik vazifasini o‘taydi:

Havoda bor yorug‘ yulduz,
Daryoda o‘ynaydi qunduz.
Merganlar qildi g‘ayratni,
Yo‘l tortdi uch kecha-kunduz.

“Murodxon” dostonida Fozil shoir yuqoridagi formu-lani juda oz o‘zgarish bilan qo‘llaydi va qahramonning yo‘l yurish maromini bayon etadi:

Havoda bor yorug‘ yulduz,
Daryoda o‘ynaydi qunduz.
Yo‘l yurib kecha-kunduz,
Shuytib ketib boradi .

Quyosh botgach, osmonda yorug‘ yulduz paydo bo‘ladi, qunduz esa daryoda erkin suzadi. Bu ikki narsani aytish bilan baxshi, birinchidan, keyingi misralarda uch kecha-kunduz yo‘l bosilganligini aytish uchun ritmik zamin hozirlaydi, ikkinchidan, «yulduz», «qunduz» va «kunduz» so‘zlarini qofiyalash, shu orqali bandni yagona ohang uyg‘unligida shakllantirishga erishadi.

Umuman, yuqoridagi epik formula qahramonning ulovda yo‘l bosishi va birinchi manzilga yetib kelish muddatini ma‘lum qilishga yordam beradi. Boshqa baxshilarda esa xuddi shu vazifani bajaruvchi butunlay boshqa shakldagi epik formulalar ham mavjud. Masalan, Po‘lkan shoir Go‘ro‘g‘li-

ning tug‘ilishi» dostonida Go‘ro‘g‘lining otda qancha muddat yo‘l yurganini ma‘lum qilish uchun quyidagi epik formulani qo‘llaydi:

Ol-ol yurdi, ol yurdi,
Ozginamas, mo‘l yurdi,
Choqlamayin Go‘ro‘g‘li
Tag‘i qirq kun yo‘l yurdi .

Qahramonning otda yo‘l yurishi muhlatini bayon etishga xizmat qiluvchi epik formulalarni ko‘zdan kechirish yuqorida keltirilgan shakldagi epik formulalarning ham romanik dostonlar matnida keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Masalan, ana shu epik formula biroz shakliy o‘zgarishlar bilan Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining «Kuntug‘mish» dostonida Xolbekaning ikki o‘g‘lini bandi qilgan Zangar lashkarining necha kun yo‘l yurib, go‘daklarni Zangar shahriga olib kelganliklarini bayon etishda qo‘llanilgan:

Ol-ol yurdi, ol yurdi,
Ozginamas, mo‘l yurdi,
Ot hukimda go‘daklar
Ayni o‘n kun yo‘l yurdi l.

Xullas, epik qahramonlarning otda yo‘l bosishlari 7-8-bo‘g‘inli barmoq vaznidagi qisqa she‘r shaklida bayon etilib, ularda qo‘llanilgan epik formulalar epik bayon uchun ritmik uyg‘unlik va qofiyalashga qoliplik vazifasini ado etadilar.

Romanik dostonlarda jang tasviri o‘ziga xos mubolag‘alar vositasida tasvirlanadi. qahramonlarning o‘zga yurtlardan go‘zal malikalar yoki parilarni olib kelishlarida o‘zga yurt lashkarlari bilan jangga kirishlariga to‘g‘ri keladi. Ba‘zan qahramonlar go‘zal malikalarni hiyla bilan olib qochadilar, ba‘zan ularning olib borgan janglari, mardonavor olishishlari qisqa she‘r shaklida maxsus epik formulalar vositasida bayon etiladi.

Romanik dostonlar qahramonlari har bir ishni imkoni boricha urushsiz, qon to'kmasdan hal qilishga harakat qiladilar. Biroq keskin vaziyat jangsiz hal bo'lmasligini bilishgach, dushman ustiga sherdek tashlanadilar. Jang oldidan ular o'z yigitlariga murojaat etishib, dushman ustiga ot qo'yishga da'vat etishadi. Ularning da'vati esa mazmunan «g'anim ustiga ot qo'yish, dushmanning boshini olish, uning qonini to'kish» kabilardan iborat bo'ladi. Epik mazmunning ana shunday umumiy xarakteri muayyan epik formulalarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Dalli» dostonida Hasanxonni o'rab olgan dushman ustiga Go'ro'g'li yetib boradi va u o'z yigitlarini g'anim ustiga tashlanishga da'vat etadi. Bu da'vat esa jang tafsilotlari bayonida har bir band boshlanishi yoki so'ngida alohida takrorlanib keladi:

Ot qo'y g'animning qasdiga,
Kalla kesib, qon to'kinglar
Hasanxon mardning ustiga.

Epik formulalar orasidagi bandlar turlicha mazmunga ega. Bir bandda Go'ro'g'li yigitlariga murojaat etib, osh-tuzini totganlar, bugun xizmat qilish vaqti yetganini aytsa, boshqa birida yigitlarga dalda berib, yov ustiga shiddat bilan tashlanishga undash kabilar bayon etiladi. Bandlarning o'zaro yagona epik mazmun bilan bog'lanishi esa yuqoridagi epik formulaning refren sifatida doimiy takrorlanib turishi orqali ta'minlanadi.

Jang tasvirida bunday da'vatkor epik formulalarning takror qo'llanilishi faqat Ergash shoirdagina emas, balki boshqa baxshilarda ham keng qo'llaniladi. Masalan, Po'ltan shoir kuylagan «Yunus pari» dostonida Ahmad sardor Ayloq tepaga chiqib, barcha yig'ilgan turkman yigitlariga qarata «ot qo'yinglar» deb murojaat qiladi. Uning murojaati ham «ot qo'ying» yoki «ot qo'y» arabning ustiga formulasi bilan boshlanadi:

Ot qo'ying har yon, har yondan,
Ming bir yog'dan, ming bir yondan,
Ot qo'y dushmanning qasdiga!

qilich soling, qon to'kilsin,

Asqar tog'ining pastiga .

Fozil shoir kuylagan «Malika ayyor» dostonida ham Arbotindan kelayotgan lashkar ustiga ot solar ekan, ana shu formulani bir o'rinda «pirlardan duo olib» misrasidan keyin, boshqa bir o'rinda esa bandning boshida qo'llaydi:

Komil pirlarni yod etib,

Ot qo'ydi dushman ustiga.

Yoki:

Ot qo'ydi dushman ustiga.

qaramay baland-pastiga .

Usmon Mamatqul o'g'lidan yozib olingan «Shohdorxon» dostonida ham Shohdor lashkariga qarshi Go'ro'g'li jang boshlar ekan, o'z yigitlariga murojaat qilib, dushman ustiga qo'rqmay ot qo'yishga da'vat etadi. Ushbu bandda ham, xuddi Po'lkan shoirdagidek, epik formula yigitlarning qaysi tomondan ot qo'yishini ko'rsatish bilan bog'liq holda aytiladi:

Go'ro'g'li der mening o'zim,

O'lsam, o'char yulduzim,

Siz u yoqdan, men bu yoqdan,

Ot qo'yinglar, botir qo'ziml .

Ergash shoirda esa jang boshlashga da'vat etuvchi epik formula bir necha variantlarda uchraydi. Masalan, «Xoldorxon» dostonida shoh qaysarning lashkariga qarshi Go'ro'g'li qirq yigitiga murojaat etar ekan, «ot qo'y» deb boshlanuvchi formulani bir necha o'rinda, bir necha shaklda qo'llaydi:

Ot qo'y dedi, el yugurdi,

Yerning bag'rini qovurdi .

Yoki: Ot qo'ydi, yer larzon bo'ldi,

Ko'z ko'rmagan maydon bo'ldi .

Yoki: Ot qo‘ydi lashkar to‘sh-to‘shdan,
quloq kar bo‘ldi kush-kushdan.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, bir misradan iborat epik formula baxshiga ijro paytida uzluksiz badiha qilishga, jangning boshlanishi va borishini bayon etishda qofiya va ritm uchun zamin hozirlab berishga xizmat qilish vazifasini o‘tagan.

Romanik dostonlarning ko‘pchiligida jang tasvirida ikki misradan iborat epik formulalar qo‘llaniladi. Ular qahramon tilidan aytilib, bo‘lajak jangning ovozi, dahshati beqiyos darajada katta bo‘lishligidan xabar beradi. «Ravshan» dostonida Hasanxonning kal jo‘ralariga murojaatida ana shunday epik formulani uchratamiz:

Ot qo‘ydilar yakka-yakka,
Ovoza soling falakka.

Demak, dushman ustiga ot qo‘yilganda, suron solib borish jangga kiruvchilarga dalda bersa, g‘anim diliga vahima soladi. Mana shu holat epik formulaning mohiyatini, hayotiy mazmunini tashkil etadi. Shunday mazmundagi epik formula Po‘lkan shoir kuylagan «Yunus pari» dostonida o‘zgacha shaklda ifodalangan:

Bu qo‘shinning to‘zoni
Osmonga chiqib ketdi.
Odamlarning shovqini
Tog‘u dashtni tebratti.

Fozil shoir «Murodxon» dostonida dushman ustiga ot qo‘ygan lashkarning suron solib borishi xuddi osmondagi yulduzlarning ko‘chishiga yoki orom olayotgan karvonning qiy-chuv ko‘tarib ko‘chishiga o‘xshatiladi. Bu xildagi o‘xshatishli epik formulalar boshlanayotgan jangning dahshati va qasirg‘asini tinglovchi tomonidan jonli qabul qilinishiga yordam beradi:

Karvon ko‘chgandayin bo‘ldi,
Yulduz uchgandayin bo‘ldi,
Har tarafni to‘zon oldi,
Ko‘p lashkar jovlik ot soldi .

Borayotgan jangning dahshati, unda ishlatilayotgan qurollar, bo‘layotgan son-sanoqsiz qurbonlarni ifodalashga xizmat qiluvchi epik formulalar ham borki, ular «maydon ichinda» birikmasi bilan yakunlanadi. «Malika ayyor» dostonidan keltirilgan quyidagi parchada ana shunday epik formula namunasini ko‘ramiz:

Yarashiqqa tikib chodir,
Farang miltiq patir-patir
Otildi maydon ichinda.

Mana shundan keyin baxshilar bevosita jangning borishini tasvirlashga o‘tadilar. Urushning shafqat bilmasligi, qirq yigit qo‘lidagi qilichlar esa yoppasiga bosh olib qon to‘kayotganligi, g‘animni qirishi mard yigitlar uchun «oltin kosada gulgun may ichib», kayf-safo qilganday gasht bag‘ishlashini ifodalovchi misralar romanik dostonlarning deyarli barchasida bir xildagi barqaror epik formulaga aylangan: Masalan, «Murodxon» dostonida:

qilich kelar yalab-yalab,
Istar ko‘nglim qilar talab.
Oltin kosa, gulgun sharob
Ichildi maydon ichinda .

«Ravshan» dostonida:

qilich kelar yalab-yalab,
G‘arib ko‘ngul istar talab.
Oltin kosa, gulgun sharob
Ichildi maydon ichinda .

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi" dostonida:

Shoxli miltiq yalab-yalab,
Botir ko‘ngli istar talab,
Oltin kosa, ajal sharob
Ichildi maydon ichinda.

«Malika ayyor» dostonida:

qilich kelar alab-yalab,

Istar ko'ngil qilar talab.

Oltin kosa, gulgun sharob

Ichildi maydon ichinda .

Ayni shu epik formulaning o'zi dostonning boshqa bir o'rnida sal o'zgartirilgan shaklda qo'llanilgan:

qilich kelar alab-yalab,

Istar ko'ngul qilar talab.

Oltin kosa, gulgun sharob

Ichilib maydon ichinda .

«Intizor» dostonida:

qilich kelar alab-yalab,

Botir bir-birga qarab,

Dushman bo'ldi erga talab,

Oltin kosa, gulgun sharob

Ichildi maydon ichinda .

«Nurali» dostonida:

qilich kelar alab-yalab;

Istar ko'ngil qilar talab.

qaytmaydi urushga qarab,

Oltin kosa, gulgun sharob

Ichilar maydon ichinda⁸ .

Yuqorida keltirilgan misollardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, jang maydonidagi qirg'inning miqyosi dushmandan qasd olish ishtiyoqida yongan dil uchun hech qanday dahshatli narsa emasdek, aksincha, botirning qilichi g'animni

⁸ Bulbul taronalari 2 tom Ergash Jumanbulbul o'g'lining doston va termalari Toshkent 1997 y 514-B

qancha «alab-yalasa», u oltin kosada gulgun sharob ichgandek zavq olishini ifodalovchi epik formula barcha romanik dostonlarda keng tarqalgan.

Ushbu formulaning birinchi misrasida qahramonlarning ishlatgan quollariga qarab, «qilich» yoki «farangi miltiq» tarzida oʻzgarib borishi mumkin. Shunga qaramay, mazkur epik formula jangning borish tarzi, shiddati haqida badiiy axborot berishning eng universal qolipiga aylangan. Baʼzan baxshilar «maydon ichinda» birikmasini epik bayonda bir misra oralatib qoʻllaydilar. Masalan, Ergash Jumanbulbul oʻgʻlining «Dalli» dostonida ana shunday holni koʻramiz:

Oq, qora tugʻ soʻlqillab
Tikildi maydon ichinda.
Yugurdi otlar oʻlik qoqib,
qoqildi maydon ichinda.
Ne yoʻlbarslar qaddi yoyday
Bukildi maydon ichinda,

Boʻz tuproqqa qirmiz qonlar
Toʻkildi maydon ichinda.

Mana shu tarzda «maydon ichinda» birikmasi yigirma olti bandda misra oralatib qoʻllanilgan boʻlsa, epik bayon davomida ushbu birikma sakkiz misrali bandning sakkizinchi misrasida qoʻllanilib boriladi. Ushbu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, jangning borishi, uning ajal keltirishi, yaʼni qirgʻin miqyosini tasvirlashda doimiy takrorlanib keladigan «maydon ichinda» barqaror birikmasi epik formula vazifasini oʻtagan. Chunki bu birikma jangdagi xatti-harakat, boʻlayotgan qirgʻin va jang quollariga qarab bir soʻzni oʻzgartirish (tikildi, qoqildi, bukildi, toʻkildi va h.k) orqali epik bayonni davom ettirishga qulaylik tugʻdiradi.

Janglar tasviridagi toʻliq misralar yoki barqaror birikmalar shaklidagi epik formulalar botirlarning ishlatgan quollari, ularning qirgʻin keltirish miqyosini koʻrsatishga, shu orqali qirgʻin-barotning dahshatini aniq tasvirlashga yordam

beradilar. Muhimi shundaki, epik formulalar jangning borishini tasvirlashda ritmik mezonlik vazifasini o'tagan. Sakkiz bo'g'inli vazndagi ritmik izchillikni ijro jarayonida saqlab borish ancha qiyin. Yuqoridagi epik formulalar esa baxshiga badiha jarayonida ana shu ritmni saqlab borishga imkon beradi. Bundan tashqari, epik formula tarkibida metaforik obrazlar qo'llanilganda, formula tasvirga o'ziga xos ramziy fon bag'ishlaydi, tinglovchi diqqatini bayonga, jang voqealari tafsilotiga kuchliroq jalb etadi. Shu bois qisqa she'r tipidagi epik formulalar xalq romanik dostonlari uchun struktural tipologik hodisa sanaladi.

Xalq eposida obraz va obrazli nutqni yaratishda badiiy ko'chimlar, xususan, metaforalarning tutgan o'rni, ado etgan vazifalarini o'rganish alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi. Shu bois biz masalaning bunday keng qamrovi haqida so'z yuritishdan tiyinib, quyida faqat bir masala - barqaror epik formulalar tarkibidagi metaforalarning tasvir yoki ifodaga ramziy ma'no bag'ishlashlari haqida to'xtalishni lozim topdik.

Ma'lumki, metafora o'zbek adabiyotshunosligi, folk-lorshunosligi va tilshunosligida bir narsani o'xshashlik asosida boshqa bir nom bilan atash, qisqa o'xshatish kabi ta'riflar bilan izohlab kelinadi¹. Natijada, ularning haqiqiy poetik tabiati, badiiy matnda bajargan vazifalari ham ana shu doirada izohlanadi. Holbuki, metafora badiiylikni nobadiiylikdan, obrazlilikni obrazli bo'lmagan narsalardan farqlashda yetakchi mezonlardan biri vazifasini o'taydi. Chunki har qanday metafora matnda nominativ, obrazli hissiy tasvirlash va baholash vazifalarini ado etadi.

Obrazli-hissiy, ya'ni emotiv metaforalar tinglovchi yoki o'quvchida tasvirlanayotgan obraz yoki voqeaga nisbatan hissiy baho tug'dirishdan iborat. Dostonlar badiiyligini, obrazli tilini ta'minlashda bunday ko'chimlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki dunyoni keng epik miqyosda ko'rish, xalq ommasi va baxshi (ijodkor) nigohining uyg'unlik darajasini baholash mezoni faqat badiiy ko'chimlar, ayniqsa, metaforalar tahlili orqali amalga oshadi.

Metafora biror narsa yoki holat asosida inson ongida chaqnagan yangi narsa yoki holatning assotsiativ nomlanishidan, uning obrazli tasvirlanishidan yoxud

ifodalanishidan iboratdir. Mana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, metafora real voqelikdagi narsa va hodisalar ta'sirida inson tafakkurining chuqur qatlamlarida tug'iladi. Shu ma'noda har bir metaforaning tug'ilishi zaruriy lisoniy-badiiy hodisadir. Chunki metaforasiz inson ongida chaqnagan tasavvur, obraz qalbida tug'ilgan tuyg'uni aniq va ta'sirchan tasvirlab yoki ifodalab bo'lmaydi. Shu metafora inson ongi va tili uchun zaruriy muqarrar hodisa sanaladi. Jiddiyroq qaralsa, metafora mubham, tarqoq va tumanli tushunchalarni aniq qiyofa, aniq nom bilan ataydi, shu tufayli hissiyotimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shoiru adiblarning, umuman, ijodkorlarning metaforalarga murojaat etishlari asosida asar qahramonlari ruhiy olamidagi murakkab kechinmalarni jonli tasvirlash yoki ifodalash ehtiyoji yotadi. Metaforaning obrazlilik, emotiv va baholash kuchi uni tashkil etgan komponentlarning o'zlari anglatgan lug'aviy ma'nolardan uzoqligi bilan belgilanadi. Masalan, Hasanxon Dallini olib qochgach, uning ortidan quvib kelgan lashkarga katta qirg'in soladi va o'zining qilgan ishidan mag'rurlanib manmanlikka beriladi. Bu manmanlik esa uni falokatga yetaklaydi. Mana shu holat tasvirida metaforik obraz qo'llanilgan:

Manmanlikning zangi ko'nglin boyladi,

Kishini falokat bossa ko'p yomon.

Keltirilgan barqaror epik formulaga alohida hissiy ohang, ramziy ma'no bag'ishlagan narsa birinchi misrada ikkita, ikkinchi misrada bitta metaforik obraz qo'llanilishidir. «Manmanlik zangi» insondagi manmanlik kasali bo'lib, metaforaning mohiyatini «zang» obrazi belgilab beradi. Odatda, metall buyumlarda ro'y beradigan zang boylash ana shu buyumlarning chirib yo'qolishiga olib keladi. Manmanlik zangi inson ongini cho'lg'ab olsa, bu illat oxir oqibat uni halokatga olib keladi. «Ko'nglini boylash» esa manmanlik zangining inson qalbini egallab olishini anglatadi. Ikkinchi misradagi «falokat bossa» metaforik iborasi esa «manmanlik zangi»ning inson boshiga soladigan yomon oqibatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ma'lum bo'ladiki, emotiv-estetik zaryadga ega bo'lgan bunday metaforalar barqaror epik formulaga obrazlilik bag'ishlashga yo'naltirilgan.

Romanik dostonlardagi an'anaviy epik formulalarda yana shunday metaforalar istifoda etiladiki, ulardan ayrimlari ham nomlash, ham hissiy, ham kontseptual vazifalarni ado etadilar. Masalan:

Toza gulsan, oftob tegib so‘lmasin,
Mavj urib daryoday to‘lib toshmagin.

Ushbu formulaning birinchi misrasidagi «toza gul» «oftob» so‘zlari ramziy ma'noda kontseptual va hissiy metaforalarni tashkil etadilar. Chunki yosh, kuch-g'ayratga to'la Hasanxonning noma'lum yurtga, xatarli safarga jo'nashi yangi, yosh g'unchaning kuchli oftob nuri, issiqligi ta'sirida so'lishiga ishora qiladi. Misrada ifodalangan asosiy fikrni o'xshashlik asosida mutlaqo boshqa obrazlar orqali ramziy ifodalash epik formulaga bo'lgan tinglovchining qiziqishini kuchaytiradi.

Mana shunday metaforik misradan keyin yetakchi epik bayonda qo'llanilgan «vallamat», «tuz» kabi metaforalar esa nutqda ko'p ishlatilishlari oqibatida oddiy til metaforalari darajasiga tushib qolganlar. Til metaforalarining esa ta'sir darajasi ancha past bo'ladi.

Epik formulalar ta'sirchanligi ulardagi metaforik obrazlar hisobiga ortadi. Chunki ulardagi har bir metaforik obraz mazmunan o'zidan keyin keladigan epik bayon bilan ramziy aloqadorlikka ega. Bu narsani quyidagi she'riy bandeda yaqqol ko'rish mumkin.

Avazxon xiyonat qilib, parilar bilan til biriktirib, G'irotni olib qochgan va bu xiyonati uchun Yunus hamda Misqol paridan munosib «taqdirlangan» (ko'zlari o'yilib, bir vayronaga tashlab ketilgan) Gajdumxon oldidan chiqib, yo'lida davom etadi. Shunda bir qizil ravot ichidan chiqib kelgan kampir Avazxonning qaddi-bastini, siyog'ini ko'rib, uning oddiy yo'lovchi emasligini bilib, sen qaysi mamlakatdan, qaysi bekning o'g'lisan, deb so'raydi. Mana shu so'rovni u oddiy qilib emas, balki jamolini bahorda ochilgan gulga, chamanda erkin uchib sayrayotgan bulbulga tenglashtirib tavsiflab so'raydi. «Gul» va «bulbul» metaforalari Avazning siyog'ini ta'riflashga xizmat qiladi. Mana shu ikki metafora esa o'zlaridan oldin kelgan «bahor» va «bog'», «chaman» kabi detallarni ham

metaforik talqin qilishga olib keladi. Chunki birinchi misradagi «bahor» personajning yoshligiga, «bogʻ» va «chaman» esa uning unib-oʻsgan mamlakati hamda xonadoniga ishora qilib turibdi. Shu tariqa epik formula va keyingi epik bayon misralari oʻzaro bogʻlanishga kirishadilar. Bu bogʻlanish esa metaforik obrazlar mohiyatini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Agar epik formuladan keyingi ikki misra keltirilsa, formuladagi metaforik obrazlar mohiyati toʻla ochilmaydi, boshqacha aytganda, metaforalar emotiv hamda kontseptual vazifa ado etmay, faqat nominativ mohiyat doirasida qoladilar. Nominativ metaforalarning taʼsirchanligi u qadar yuqori boʻlmaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, epik formula va asosiy epik bayonni ifodalovchi misralar oʻzaro mazmunan bogʻlanganlaridagina formula tarkibidagi metaforalar jonlanadi va keyingi misralar bilan ramziy aloqadorlik vujudga keladi:

Bahorda ochilgan bogʻning gulisan,
Chamanning sayragan sen bulbulisan.

Epik formulaning oʻzi yuqoridagiday alohida olinsa, uning tarkibidagi metaforalar personajni metaforik koʻchim vositasida faqat qayta nomlash uchun xizmat qiladi. Biroq personajni qayta nomlashga xizmat qilayotgan metaforalardagi ikkinchi shaxsga taalluqli shaxs-son qoʻshimchalari mazmunan keyingi misralarni va ana shu misralarda aniq personaj bilan bogʻlanishni talab etadi. Bu esa personaj va uning epik formuladagi tavsifiy nomlanishi oʻrtasida ramziy bogʻlanish boʻlishini taqozo etadi. Mana shu tariqa oddiy nomlash vazifasidagi metaforalar emotiv hamda kontseptual vazifalar ado etishga ham xizmat qiladilar:

Tarzing koʻrib, mamlakating soʻrayman
Qay shaharda, qaysi bekning ulisan?

«Tarzing koʻrib»-«bahorda ochilgan bogʻning guli» bilan, «chamanning sayragan bulbuli» esa «qay shaharda, qaysi bekning ulisan» bilan ichki ramziy aloqadorlikka ega. Mana shu ichki aloqadorlik tufayli epik formula qoʻllanilgan bandlar hissiy jihatdan yuksak, taʼsirchan, ramziy va sehrli ifodalanish xususiyatiga ega boʻladilar.

Romanik dostonlarda shunday epik formulalar bor, ular bir-biriga uyg'un qofiyalangan ikkita metaforik obraz orqali hissiy taassurot uyg'otadilar va formulaga ramziy xarakter bag'ishlaydilar. Masalan, «Ravshan» dostonidagi bir epik formulaning ikkala misrasi ana shunday metaforik obrazlar «qunduzim», «yulduzim» vositasida bog'lanib, yaxlit bir mazmun kasb etadilar. Eng xarakterli joyi shundaki, metaforalar oldidan aniqlovchi bo'lib kelgan narsalar ham metaforalarga asoslangan. Demak, epik formulaning tarkibi metafora ustiga qurilgan metaforik obrazlar tavsifidan iborat:

Ulug' daryolardan chiqqan qunduzim,

Falak peshtoqidan uchgan yulduzim.

(BT, 2-tom, 378-bet).

Birinchi misradagi «qunduz» so'zi lug'aviy ma'nodagi qunduz emas, balki Ravshanning metaforik nomlanishidan iborat. Ana shu metaforik obrazning aniqlovchilari ham metaforik epitetlarga asoslangan. Ravshan ota-onasi, Go'ro'g'li uchun katta qadr-qimmatga, mehr-shafqat va e'tiborga loyiq farzand. Shu bois u oddiy anhor yoki ko'llarda yashovchi qunduz emas, balki ulug' daryolarda kamol topgan qunduz. Formulaning ikkinchi misrasi ham xuddi shunday xarakterga ega. Chunki falak peshtoqidan uchgan yulduz-Hasanxon va Xon Dallining peshonalariga bitgan yolg'iz yulduz. Darhaqiqat, ota-ona manglayiga bitgan bu yulduz falak peshtoqida charaqlagan yulduzdir. Uning yor izlab musofir yurtlarga safar qilishi, qismatining qorong'uligi metaforik yo'l bilan «falak peshtoqidan uchgan yulduz»ga o'xshatilgan. Formulaning har ikki misrasidagi mazmunning ramziy ifodalanishi tasvir va ifodaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Epik formuladagi metaforik obrazlar faqat ramziy ma'nolari bilan o'zidan keyin kelayotgan epik bayonga yaxshi birikib ketgan. Bunda she'riy bandning to'rtinchi misrasidagi qofiyaning ahamiyati belgilovchi rol o'ynaydi. «Yolg'izim» metaforasi qahramonning ota-ona uchun naqadar aziz va ardoqli ekanligiga urg'u beradi. Mana shu tufayli epik bayon bilan epik formula o'rtasidagi mazmuniy aloqadorlik ta'minlangan. Bunda epik formulaning ado etgan vazifasi yana yangi bir vazifa bilan boyigan. Agar boshqa epik formulalar bandni tugal mazmunda shakllantirish

uchun o‘zidan keyin kelayotgan epik bayonga vazn, qofiya jihatidan qoliplik vazifasini ado etsalar, yuqorida biz ko‘rib o‘tgan banddagi epik formula tarkibidagi metaforalar qayd etilgan ikki vazifaga qo‘shimcha tarzda epik bayonga ramziy ruh bag‘ishlash va shu orqali tinglovchi ko‘zi oldida aniq tasviriylik yaratish, uning qalbiga kuchli ta'sirchanlik bag‘ishlashga xizmat qiladi.

Romanik dostonlarda yana shunday epik formulalar borki, ular besh misrali she'riy bandning to‘rt misrasini tashkil etadilar. Ko‘p misrali epik formulalar ramziy ma'nodagi metaforik obrazlardan tashqari purhikmat fikr-xulosalar ifodalash uchun majoziy tasvirga ham yo‘l bergan. quyidagi besh misrali band buning yorqin misoli bo‘la oladi:

Xazon bo‘lsa, g‘ozlar qo‘nar gulshanga,
Ajalli kasratki tegar ilonga,
Indin chiqib pishak bilan hazillar,
Magar ajal qamsab kelsa sichqonga,
Men chirpib otarman seni osmonga.

Epik formulaning birinchi misrasida «xazon», «g‘oz», «gulshan» kabi uchta metaforik obraz bor. Ularning biri «xazon» umrning o‘tkinchiligiga ishora. Shu sababli har qanday umr gulshani xazon faslida zog‘lar maskaniga aylanadi. Mana shuni aytish orqali Avaz «umring barvaqt zoye bo‘lmasin, umr gulshaningni zog‘lar egallamasin» deb devni ogohlantiradi. Ko‘rinib turibdiki, ramziy xarakterdagi birgina metaforik obraz bir-birlarini taqozo etadigan boshqa metaforalarning qo‘llanishiga olib kelgan. Chunki ibratli fikr bildirishga xizmat qiluvchi epik formula tarkibida metaforik obraz metaforik bo‘lmagan obraz bilan uyg‘un bog‘lana olmaydi. O‘zaro mantiqan uyg‘unlik bilan bog‘langan metaforik obrazlar esa epik formulaga kuchli ramziy ma'no, ta'sirchanlik bag‘ishlaydi.

Demak, epik formula tarkibidagi metaforik obrazlar devning ajali yetganligiga ramziy ishora vazifasini o‘taganlar. Biroq bu ishorani yanada kuchaytirish, ko‘p hollarda, epik formuladagi ramziy-majoziy tasvirni yanada

o'shirish orqali amalga oshadi. Mana shuning uchun bandning ikkinchi misrasida «kasratki» va «ilon», uchinchi va to'rtinchi misralarda esa «sichqon» va «pishak» majoziy obrazlari qo'llanilgan. Agar diqqat qilinsa, kuch-qudrat jihatidan bir-birining kushandasi bo'la oladigan jonvorlarning tilga olinishi orqali Avazxon o'zining devning kushandasi ekanligini aytishni nazarda tutgan. Banddagi oxirgi misraning «men chirpib otarman seni osmonga» do'q-po'pisa bilan yakunlanishi fikrimizning tasdig'i bo'la oladi.

Xullas, o'zbek xalq romanik dostonlarida yuzlab barqaror formulalar qo'llanilgan bo'lib, ularda xalqning ko'p asrlik turmush tajribalari, kuzatishlari; xalqning hayot, tabiat va inson haqidagi qarashlari goh ramziy, goh majoziy tarzda o'z ifodasini topgan. Iqtidorli xalq baxshilari barqaror epik formulalarni mukammal o'zlashtirish orqali ularni rang-barang epik vaziyatlar tasvirida, asar qahramonlari ruhiy dunyosini chuqurroq ochishda, ularning nutqlarini ta'sirchan ifodalashda, o'y-kechinmalarini hayratomuz bayon etish talab etilgan o'rinlarda istifoda etishga xoslab olganlar.

Romanik dostonlardagi barqaror epik formulalar poetikasi yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz bizga quyidagicha umumiy xulosalar qilish uchun asos berdi:

1. Barqaror epik formulalar muayyan epik asar syujeti bilan mazmunan aloqador bo'lmay, ular xalq eposida tasvir hamda ifoda uchun obrazli asos vazifasini o'taydigan; epik tasvirning turli vaziyat va holatlarida qo'llanishga xoslangan universal uslubiy hodisalar hisoblanadilar.

2. Epik formulalar epik ijod va ijroning muhim sharti bo'lmish epik xotira, epik bilimni baxshilar ongida mustahkam saqlab turuvchi, ularni badiha qilishlari uchun imkon berib, jonli ijroni izchil yo'naltirib boruvchi poetik hodisa hisoblanadilar.

3. Barqaror epik formulalar epik xalq she'rining tiplariga mos holda turlicha ritmik shakllarda uchraydilar. Epik personajlarning ruhiy kechinmalari, monologlarida uzun she'r shakliga mos keluvchi, shuningdek, ularning xatti-

harakatlari tasviri uchun qisqa she'r shakliga moslangan barqaror epik formulalar mavjud bo'lib, romanik dostonlarda ular juda o'rinli istifoda etilgan.

4. Barqaror epik formulalar, garchi muayyan syujet bilan tarkibiy birlikka ega bo'lmasalar ham, o'zlari ishtirok etgan she'riy parchalardagi obrazlilikni, ohangdorlik va vazniy izchillikni metaforik tabiati bilan ta'minlashga; tasvir hamda ifodaga kuchli hissiy quvvat bag'ishlash orqali ta'sirchanlikni orttirishga xizmat qiladilar.

5. Ot egarlash motividagi barqaror stilistik formulalar tasvirlanayotgan hatti-harakat bilan ham ramziy, ham mazmuniy aloqadorlikka ega bo'lib, ular she'riy bandlarni tashkil etish, misralar qofiyasi uchun qolip yaratish, ritmik uyg'unlik tug'dirishga yordam beradilar.

XULOSA

Xalq og‘zaki ijodi xalqning tabiati, badiiy tarixi, an‘analari, milliy va ma‘naviy qadryatlarining sarchashmasi bo‘lib kelgan. Ma‘naviy jihatdan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda ajdodlarimizning asrlar davomida shakllangan badiiy an‘analari g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma‘lumki adabiyot ma‘naviyatni shakllantiruvchi vositalardan biri bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi haqli ravishda adabiyotning bosh bog‘ini sifatida ulkan badiiy obidalar bilan insoniyat taraqqiyotida, jahon madaniyatida o‘zining munosib o‘riniga ega. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov “ Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch ” asarida ta‘kidlaganlaridek “ ma‘naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, ma‘naviyatini shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biri - xalq og‘zaki ijodi durdonalarining yaratilishi va ijrosidir.”

Biz o‘z ishlanishimiz uchun tanlab olgan mavzu ham aynan mana shu jarayon, ya‘ni ijro jarayoni, epik ijodkor – baxshining ijro mahorati bilan chambarchas bog‘liqdir. Biz yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, mazkur dissertatsiyaida quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

1. Epik formula bu eposning yadrosidir. Biz epik formulaning nima ekanligini tushunmay biror bir doston mohiyatini tushunib yetolmaymiz.Og‘caki ijod deganda, biz eng avvola, ana shu epik formula asos bo‘lgan ijodga aytamiz.Yozma adabiyotning o‘z qonuniyatlari mavjud.U ana shu qonuniyatlarga asoslanib rivoj topadi.Og‘zaki ijodning esa qonunyati bitta bu epik formulaga asoslanganlik.Bu ijodning og‘zakiligini , an‘anaviyligini ta‘minlaydi.Epik formula bu eposning qurilmasi, suyagidir.
2. Ijodkor, baxshi o‘z «uyi»ni, ya‘ni doston kuylar ekan u ana shu «suyak»ka, asosga suyanadi.Shunga asoslanib u o‘z dostonini kuylaydi.Epik formula bu tayyor qolip.Baxshi o‘z dostonini ana shu epik qolipga moslaydi.Biroq bu degani baxshi faqat takrorlaydi, ya‘ni

hech bir yangilik yaratmaydi degani emas. Baxshi har bir baxshi epik formulaga o'zicha yondoshadi, bu ijodiy yondoshish uning navotorligini, nechog'li iqtidorli ekanini namoyish etadi. Epik formulalar qonuniyatini bilmasdan turib, epos qonuniyatini ham bilish mumkin emas.

3. Folklorshunos olimlar: «Xalq og'zaki ijodi ijro uchun yaratilmaydi, balki ijro etilayotganda yaratiladi», - deydi. Baxshi kuylayotganda epos yana bir marta yangilanadi, yangicha mazmun, yangicha ohang, yangicha mohiyat kasb etadi. Epik formula ma'lum bir tizim, ma'lum bir qurilmaga ega. Epik formula deganda biror bir fikrni ifodalash uchun ma'lum bir shaklda, ya'ni sheriyl shaklda takror va takror uchraydigan so'zlar tizimi, quyma satrlar nazarda tutiladi. Bu xuddi tirik organizm, ya'ni tananing suyagiga o'xshaydi. Suyak tuzulishi hammada bir xil. Biroq, eti, og'irligi, rangi va eng muhimi dunyoqarash, tushuncha va ruhiyati hammada har xil bo'ladi. Xuddi shunday epik ijodda hai ijodkor epik formulaga tayanib o'z «tana»sini yaratadi. Biror bir shoirning she'ridagi ma'no va mohiyatni anglash uchun shu she'rni yaratayotgandagi shoirning holatiga e'tiborimizni qaratamiz. Aynan shoirning o'sha paytdagi ruhiy holati she'rning yuzaga kelish jarayoni, undagi poetik tafakkurning to'g'ri talqin qilishimizga olib keladi. Shoir bu she'rni keyinchalik turli davralarda turli kayfiyat va turli holatlarda takror va takror o'qishi mumkin. Biroq biz uchun muhimi bu uning she'r yaralayotgan paytdagi holatidir. Bu yozma adabiyotga xos bo'lgan xususiyatdir. Og'zaki ijod, ya'ni epik an'ana – doston ijrosiga xos bo'lgan xususiyat esa mutloqqa boshqa. Bu baxshining aynan ijro paytidagi holatidir. Zero og'zaki ijod mana shunday ijro payti yaraladi, yuzaga keladi. Bu og'zaki ijod qonuniyatidir.
4. Eposdagi mana shu epik formulalar bir-biriga tutashgandagina u ma'lum bir ko'rinish, ya'ni doston ko'rinishini oladi. Epik formula qotib qolgan, o'zgarmas tizim emas. U o'zgaruvchan, har gal yangilanib

turuvchi formuladir. Baxshi o'zida an'anaviylikni va individuallikni o'zida jamlay olgan ijodkordir. Baxshi bu shunchaki ijrochi emas, u an'anaviylikka asoslanib, o'z san'atini yaratayotgan tom ma'nodagi ijodkordir. Formulalarning rang-barangligi epik mavzularning rang-barangligidan kelib chiqadi. Baxshi ijrochiga nisbatan, baxshi shoirlarning tajribalari ham katta, kuylayotgan mavzulari chegaralari ham keng, shunga yarasha epik formulalarni qo'llash salohiyati ham o'zgacha bo'ladi. Bir baxshi repertuaridagi epik formulalar boshqa baxshilarda ham uchrasada, ijroda u aynan bir xil bo'lmaydi.

5. Baxshining epik an'anaga amal qilib, o'z formulasini yaratishi bu baxshining iqtidoriga va mahoratiga bog'liq. Baxshichilik san'ati ijroga, og'zakilikka asoslangan san'atdir. Har gal ijroda bu san'at yana va yana yangilanib boraveradi.
6. Og'zakilik deganda bu asarning, yoxud biror bir dostonning og'zaki ijro etilishi emas. Biror bir shoir yozgan dostonni ham og'zaki ijro etish mumkin. Yoxud biror bir yozma adabiyot na'munasini og'zaki ijro etsa bo'ladi. Biroq bu og'zakilik degani emas. Ya'ni ustoz folklorshunoslar aytgandek gap faqat ijroda emas, balki eposning og'zaki ijro etilayotgan paytda yuzaga kelishidadir. Baxshi shu paytgacha ko'p bor takrorlanganidek «savodsiz» kishi emas. Aksincha, tilning go'zal tovlanishlarni nozik ilg'ay olgan, epik bilim va epik tafakkur salohiyatiga ega iqtidorli san'atkordir.
7. Epik formulalar har bir tur dostonlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu namoyon bo'lish, albatta, dostonning turidan, misol uchun, qahramonlik, romonik yoxud kitobiy dostonlarga xosligiga qarab rang-baranglik kashf etadi. Bu rang-baranglik albatta dostonda aks etayotgan mavzudan, undagi motiv va syujet talqinidan, baxshining badihago'yligidan kelib chiqadi.
8. Epik formulalarning yuzaga kelish jarayoni bevosita til qonuniyati bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib epik formulalarni uch guruhga: 1. Malum

bir xalq baxshilariga xos bo'lgan epik formula. 2. Biror bir maktab yoxud uning bir necha vakillarga xos bo'lgan epik formula. 3. Individual epik formulalarga ajratish mumkin. Bu epik formulalarda asosan qahramonning tarifi (Meni bilsang Qo'g'irot elning to'rasi..); biror bir harakat yoki holat (Xazon bo'lib bog'da gullar so'lgandir..); biror bir makon yoxud epik vaqt tavsifi (Oshiqning fahmidir qorong'i kecha..) bayon etilganini ko'ramiz. Xuddi mana shunday formulalar tizimi zanjir hosil qilib, she'riy satrlarni yaxlit doston holatiga olib keladi. Epik formula bu baxshi xotirasidagi qo'yma misralarning tayyor zahirasi emas, balki ana shu quyma misralarning har gal, ya'ni har galgi ijroda yangicha mazmun va ohang bilan takror va takror jaranglashidir.

9. Epos og'izdan og'izga o'tib kelayotgan jarayon. U mana shu jarayonda yuzaga keladi. U mana shu jarayonda yaratiladi va har gal yangicha mazmun, yangicha mohiyat kasb etib, yangilanib boraveradi.

Biz o'z ishimizda epik formula aks etgan qahramonlik, romanik, kitobiy dostonlarni ko'rib chiqqan bo'lsakda, ko'proq, qahramonlik va romanik dostonlarga to'xtaldik. Chunki, epik formula tabiati aynan mana shu dostonlarda yanada yorqinroq namoyon bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO‘YXATI:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Alpomish. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchi To'ra Mirzayev. –Toshkent: Fan, 1999. – 120 bet.
3. Alpomish. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. Birinchi jild. Nashrga tayyorlovchi so'zboshi, ilmiy izohlar va lug'at mullifi To'ra Mirzayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2015. 512 b.
4. Alpomish. Aytuvchi Berdi baxshi. Nashrga tayyorlovchi T. Mirzayev. Toshkent, 38—39-betlar.
5. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. -L.: 1940;
6. Grinser P.A. Epicheskiye formuli v «Maxabxarate» i «Ramayane».- //Tipologicheskiye issledovaniya po folkloru. –M.:Nauka, 1979. –S.156-181.
7. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Aytuvchi: Muhammadqul Jomrot o'g'li Po'lkan. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. -T.: // G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1967. -B. 133.
8. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. -M.: GIXL,1947. -S.431-434Y.
9. Zarifov H. Yomg'ir yog'sa, halqob yerlar loylansin //Po'lkan shoir. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 4-kitob. - T.: Fan, 1976. -B.-90.
- 10.Zarifov H. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar. Yomg'ir yog'sa, halqob yerlar loylansin //Po'lkan shoir. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 4-kitob.-T.: Fan, 1976. –B.88-90.
- 11.Meletinskiy YE.M. «Obshiy mesta» i drugiy element folklor'nogo stilya v eddicheskoy poezii //Pamyatniki knijnogo eposa. –1978. –S.68-83
- 12.Malika ayyor. «O'zbek xalq ijodi». Ko'p tomlik. -T.: /ulom nomidagi

- Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. -B.15.
- 13.Mirzayev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. - T.: Fan, 1968. -B. 141-145.
 - 14.Mirzayev T. O'zbek xalq ijodi durdonalari // Alpomish. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. Birinchi jild. Nashrga tyorlovchi so'zboshi, ilmiy izohlar va lug'at mullifi To'ra Mirzayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2015. –B.10-20.
 - 15.Mirzayev T. Epos i skazitel. – Tashkent: Fan, 2008.
 - 16.Kuntug'mish. Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o'g'li //Orzigul. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. //ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - T., 1975. - B. 254.
 - 17.Neklyudov S.Y. O stilisticheskoy organizatsii mongolskoy «Geseriadi». //Pamyatniki knijnogo eposa. –1978.-S.49-67;
 - 18.Orzigul. Aytuvchi: Islom Nazar o'g'li. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik -T.: //ulom nomidagi AS nashriyoti, 1975. –B.312.
 - 19.Putilov B.N. Iskusstvo bo'linnogo pevsa //Prinsipi tekstologicheskogo izucheniya folkloru -M.-L.: Nauka, 1966;
 - 20.Rahmonov B. O'zbek xalq epik she'r tuzilishi: Filol. fanlari nomzodi dis... avtoref. -T., 1998.-B.13-20.
 - 21.Ravshan. Doston. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. –44 bet.
 - 22.Shohdorxon. Aytuvchi: Usmon Mamatqul o'g'li //Balogardon. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. - T.: //ulom nomidagi AS nashriyoti, 1986. - B. 112.
 - 23.Sarimsoqov B. «Alpomish» eposi haqida uch etyud //«Alpomish» - o'zbek xalq qahramonlik eposi. -T.: Fan, 1999. -B. 115-140.
 - 24.Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj'. –T.: Fan, 1978. –B.3-50/
 - 25.Safarov O. Ozbek xalq ogzaki ijodi. – Toshkent:Musiqa, 2010. -368 b.

Internet saytlari

1. <http://www.ziyocom.uz>
2. <http://www.ziyonet.uz>
3. <http://www.folklore.uz>
4. <http://www.khurshiddavron.uz>